


Songul Unsal

BIZNI YOLG'IZ DEB
O'YLADILAR



Ortiq bu mavsumning boshqa bir bahorga ehtiyoji bor...



QUYOSHLI KUNLAR

Hayotda shunday damlar bo'ladiki, boshingizdan o'tkazgan kunlaringiz sizga og'irdek tuyuladi go'yo, lekin vaqti kelib, yaxshilikka ekan deysiz barini. Faqatgina bu sizga saboq bo'lsin. Yiqilganingizda yerdan o'z vaqtida turishni ham o'rganing.

Sizni xuddi sevmagandek tark etib ketgan inson uchun tiz cho'kib yig'lashingiz, o'zingizga nisbatan eng katta haqoratdir. Bu yomonlikni o'zingizga ravo ko'rmang. Agar Alloh uni sizdan olgan bo'lsa, demak sizning hayotingizni yangilashni xohlayotgandir. Yangi bir hayotga tayyorgarlik esa biz o'ylaganimizdek oson emas.

Hatto xushbo'y atir sepa turib ham uni eslaysiz. Qo'l ushlab yurgan sevishtanlarni ko'rganingizda, qo'llaringizni berkitib olgiz keladi. Qo'llaringiz faqatgina samoga ko'tarilsin. Qalblar Allohning qo'lidadir, unutmang!

Ichingizda qizib turgan yog'lar eriy boshlaydi. Barcha xatolar uniki ekanligini bilsangizda, oxirida o'zingizdan xato izlaydigan darajada go'zal sevgiga duchor bo'lib qoldingiz, buni unutmang!

SIZDAN QOLGANLAR

Siz menga qoldirgan har bir yarani koʻz yoshlarim bilan yana yangilardim. Doʻstlarim menga sen kuchlisan deganlarida, yigʻlash uchun oʻzimda kuch topa olmas va tun boʻlishini intizorlik bilan kutardim. Balki kelarsiz deya kutardim. Kelib, koʻz yoshlarimni artarsiz, deb umid qilardim. Va nihoyat keldingiz ham, ammo har kelishingiz yangi bir yarani paydo qilardi. Ishoning, qalbidan sizga bergan joy bamisoli men uchun Jannat kabi rohatli edi. Ajabo, shunday insonlar ham bormi, sen uchun berilgan Jannat misoli qalbingdagi joyni Jahannamga aylantirib ketishsa-ya?

Endi yonma-yon oʻtkazgan har bir onimizni hijron azobida yonib unutishga harakat qilyapman. Siz mening orzularimni chilparchin etib armonlarga aylantirdingiz.

Endi kelmang. Na sizni sevadigan qalbni, na siz bilan oʻtkazadigan kunlarni qoldirdingiz menda. Ketayotib ularni ham olib ketdingiz.

Qancha kutish kerak boʻlsa kutdim. Sizensiz har bir luqmam tomogʻimga tigʻ kabi botdi. Qoʻl telefonim jim tursa ham xayolan har qoʻngʻiroqda uni bagʻrimga bosdim.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Siz meni sevgan kunlarni sog'indim, ammo o'ylaymanki, endi sizni sog'inmayman.

Balki bu yerlardan bosh olib ketishim kerakdir, bu diyorga endi kuz kunlarining birida qaytib kelaman. Endi mening ichimdan siz bosgan yo'llarning toshlarini bosib yurish xayoli o'tmaydi va ortiq bundan hayajonlaymayman.

Siz mening eng katta orzuim, eng azobli umidsizligimga aylandingiz. Xuddi bolalarday yig'loqi bo'lib qoldim. Shanba kunlarida men ro'zador bo'lardim. Kun bo'yi chanqoqlikdan horib suv ichganimdek, siz mening tashna qalbimni qondirar edingiz. Nihoyat so'ngan orzulardan kechdim va oktabr oyining bir kechasida men sevgimdan tava qildim.

Sizni ko'rish umidida o'tgan o'sha yo'limdan, endi sizni ko'rmaslik uchun yurmayapman. Men sizni qoldirgan joy bir kechaning tubi bo'laqolsin.

Jumlalarimni bir kitobning orasiga, bir piyolaning tagiga, bir romanning nuqtasiga yashiryapman.

Songul Unsal

Siz – barcha kulgularimning o'g'risisiz. Bir kun kelib umidsizlik, albatta, eshigingizni qoqadi. O'shanda, jamiki eshiklarning siz uchun yopilganligini anglab yetasiz.

Sizga alvido demayman, shunchaki, men qoldirgan joyda qoling. Baxtli bo'lolmasligingizni butun shahar bilsin.

KO'P ALDANDIK

Tan olaylik, ikkimiz ham chiroyli yaralandik. Bunga qaramasdan bizni jarohatlaganlarni chiroyli esladik ham. Hatto xotira bo'lsin deb, o'sha yaralarda gullar o'stirdik. Parvarish qila-qila, gulning har bir yaprog'iga mehr berdik va bu ham kifoya qilmadi!

Biz yer-u ko'kka ishonmaydigan insonlarimiz katta urinish bilan hayotimizga kirib, jimgina undan chiqib ketdilar. Yer-u ko'kka ishonmaganlarimiz, bizni na yuragining ichiga va na hayotlarining orasiga sig'dira oldilar.

Tan olaylik, eslamaylik deb uyquga berilib, o'rnimizdan sapchib uyg'ondik. Yostig'imiz faqatgina ko'zyoshlarimizni ovutdi, ammo u jarohatlangan tuyg'ularimizni ko'rolmadi.

Balki hech ko'rmaydi yoki ko'rib ko'rmaslikka oladi... "Arziydimi?", "Qadrimiz shu bo'ldimi?" dedik ajablana... Oxiri yo'q o'nlar cha savollar bilan o'zimizni yeb bitirdik.

Shunday chiroyli yaralar bilan siylashdiki, ularning qonashi uchun mos vaqt, bitishi uchun umid qolmadi. Kechaga qanchalik suyanishni istasak-da, kunduzga aylandik.

Songul Unsal

Koshki to'xta deyishning bir vaqti bo'lsaydi. Koshki to'xta deganda hamma narsa tuzalib ket-saydi. Oldingisidan ham yaxshi bo'lsaydi. Lekin hech kim "Bari o'tib ketadi" demadi. Bizni tasalli beradigan hech kimimiz yo'q edi. Chunki jim tur-dik. Chunki go'zal yaralar bilan bezalgan insonlar mag'rurlarcha jim turishga moyil bo'ladilar. Ber-kindik... Jim turishning ortiga berkindik.

Biz tortgan azoblardan kimningdir xabari bo'lganida edi, yuragimizdagi g'alayonlar oshib-to-shayotganini bilganlarida edi... Balki ularning "Senga hamdardman" degan so'zlari bizga tasalli bo'la olmasligini bilganimiz uchun ham jim tur-gandirmiz. Jim bo'la-bo'la vaqtning hukmiga top-shirdik... Aytsang-chi, ey vaqt! "Tuzalmaydi degan yaralarimizga malham bo'lasanmi?"



XAFA BO'LGANINGIZNI SEZMAGANLARGA

Xuddi o'zini bizni tushungandek ko'rsatadiganlar bor. Hatto tushunsa ham bizga ozor berishda davom etadiganlar ham. Iltimos bunga yo'l qo'ymang. Chegaralaringiz bo'lsin. Har doim o'tmishdan xulosa chiqaring. Bir ko'ngilsiz hodisaning qaytib oyog'ingizga o'ralashishiga yo'l qo'ymang. Tuyg'ularingizga takroran yengilib qolmang. Sizni xafa qilishlariga qo'yib bersangiz yana qaytib o'sha yeringizdan ozor chekaverasiz. To'xta deyishni ham biling. Bo'lmasa sizni tinch qo'ymaydiganlar ko'p bo'ladi. Qarshingizdagilar sizning yaxshi niyatingizni ko'rmay, undan foydalanyapsiz deb o'ylashsa, ulardan yaxshilik kutmang.

Soatlab suxbatlashishingizga qaramay angelay olmayotgan bo'lsalar, jim turing. Jim turishingiz ham qarshi tarafga biror narsani anglatmayotgan bo'lsa, siz sukut saqlashda davom eting, iltimos.

G'ururli bo'ling.

Tik turing.

Siz mana shunday kuchlisiz.

Inson qanchalik ozor chekkanini uni xafa qilgan insondan uzoqlashganida biladi.

JARLIKDAGI TUYG'ULARIMIZ

Ular o'zlariga berilgan e'tiborga loyiq emas-dilar. Biz uchun go'zal bo'lgan hamma narsa bir soniyada ko'kka sovurildi. Qalbimiz xuddi qora maktubdek. Yashab turib tushuntira olmagan narsalarimizni jim turib tushuntirishga harakat qilamiz.

Bizni tushunishmadi, balki tushuna turib ham bizni ranjitdilar. Jarohatimiz o'rnini ko'rmadilar. Biz shunday o'yladik, chunki bir inson unga tanish bo'lmagan yarani takroran jarohatlay olmaydi. Hamma o'zining hukmi va tasavvuridagi qonunlarga ishonadi. Qancha ko'p harakat qilsangiz shuncha kuchsiz bo'lib qolaverasiz. Qo'ying, sizni tushunishni xohlagan inson sizning ovoz ohangingizdan tanib, kulgularingizga yashirgan yaralaringizga malham bo'ladi. Soatlarcha o'zingizni oqlamang. Siz shunga amin bo'lingki, naqadar ranjiganingizni qarshi taraf shundoq ham biladi, chunki ozor berib, xafa qilgan ularning o'zlaridir. Sizni istamagan qalbning ko'chalarida

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

sayr qilmang. Oxiri yo'q ko'chalarga kelganingizda, noto'g'ri qalbning ko'chalariga duch kelganingizni anglab yetasiz. Bu dunyo minnatdorlik tuyg'usini tark etgan insonlarning nonko'rliklari bilan to'ladir. Bizni ranjitganlari yetmagandek, umidimizni ham bizdan oldilar. Siz bir tashakkurni kutayotganingizda ular o'zlaridan kechirim so'ratdilar. Nima bo'lganini fahmlamay, har safar o'zimizni ayriliq ko'chlarida uchratdik.

Naqadar ranjisak ham chiroyli sevishdan aslo voz kechmadik.

DOIM ULAR KETADILARMI?

Shu ko'nglimizning tilini naqadar charchataymiz. Bizni eshita olmaganlarga o'zimizni tushuntirish uchun naqadar ko'p harakat qilyapmiz. Mayli harakat qilish muammo emas, shuncha yaxshiliklarga qaramasdan ketmoqchi bo'lgan baribir ketadi. Derazaning tokchasidan termilib, balki kelar deb kutibmiz. Yanada yomoni – o'sha yo'llardan yolg'iz o'tmayotganini ko'rayotganimiz. Biz yo'lning o'rtasida, bundan keyin nima qilamiz deb ich etimizni yeyayotganimizda, biz jonimizni ham fido qilmoqchi bo'lgan insonlarimiz boshqalar bilan ustimizdan bosa-bosa yanchib o'tdilar. Zero, afsuslanmoqchi bo'lsangiz, mana shunday sevganingiz uchun afsuslaning.

BIR AYRILIQNING KECHASI

Mening dardim ich-ichimdan bir to'yib yig'lashdir. **Osmonimda birorta ham qush qolmagan, yerimda hamma gullar yulinib tashlangandek go'yo.**

Azoblar samoning mavj urgan bulutlarida suz-yapti. Inson bolasi borki, yer yuzida mehr-shafqatga muxtojdir. Inson degani har ozor chekkani-da o'zida yo'q narsalarni yana bir marotaba eslab quchgisi keladi. Aytdim-ku, osmonda qush qolmagan, yerda hamma gullar yulingandek, lekin shunday bo'lsa ham bunday vaziyatlarda ular ruhimizga odamlardan ko'ra ko'proq taskin bermoqda.

Radioda eshitayotgan qo'shiqlarim ham menga bir onlik xursandchilik bag'ishlamayapti. Tinchlikka eltuvchi musiqalar xuddi boshqa diyorga surgun qiligan inson kabi tuyulyabti menga. Ko'ryapsizmi, bu bir yakunning boshlanishi xolos. Yaram yangitdan yangilandi, umidlarim esa so'ndi. Azoblarim esa surnay chalgan Isrofildek o'z qiyo-matini kutmoqda.

Endi mendan qo'rqing, qo'rqing! Chunki sizni sevgan bir qalbni qo'llaringiz bilan yulib qalbingizdan uloqtirdingiz. Hozir esa kechalarning ortidan tong otishini kutib, qalbi ranjigan navbatchi bo'lib faqat men qoldim.

**Siz qarshi tarafni aybdor qilib,
odamlarga yomon ko'rinmayman,
deb o'ylaysiz.**

Yomon ko'rinasiz.

Hatto tushlarimizda ham.

**Yer bilan yakson qilib ketsangiz,
tinchlikning
ortingizdan kelishini kutyapsizmi?**

**Agar ilohiy adolatga topshirilgan
bir nohaqlik bo'lsa,
ko'nglingiz aslo tinch bo'lmasin,
VASSALOM.**

BIZNING OHLARIMIZ SIZGA OG'IRLIK QILADI

Yoki umuman kelmang, yo tark etib ketmang. Yoki hech sevmang, yo o'zingizni sevgandek ko'rsatmang. Har bir ikkilanishingizda bilingki, sizga qadalgan ma'sum bir nigoh qalbiga ozor yetkazasiz, so'ngra o'z shahdingiz ila uni tashlab ketmang va hech kimning gullayotgan dunyosini payhon qilmang. Avvalo, uning kulgularini so'ndirmang. Kulishiga sabab bo'lgan insonlaringizning ko'zlaridan ko'z yosh tomchilari bo'lib oqmang.

Kelajakdagi orzularini sel qo'porib tashlagandek parchalamang. Yoki umid bermang, yo bergan va'dalaringiz uddasidan chiqing. Shunda ham keta-man deysizmi?

Ketsangiz, munosib tarzda keting. Ortingizda yarador insonni qoldirmang.

Songul Unsal

Sizga oid qalbida nimaiki bo'lsa, uni yulib tashlang. Eshiklaringizni yoping, xohlaganingizda esa uni ochmang. Hatto qiya qilib ham ochmang. Bir muddat o'sha joyda kuting. Kalitlaringiz ham bo'lmasin. Shunda xohlasangiz ham u yerdan chiqa olmaysiz.

Sizning orzularingizni chilparchin qilgan insonlar yanada yaxshi orzularini amalga oshirayotganlarida, ular sizning har bir tortgan azoblaringiz badalini to'laydi.

O'ylab ko'ringchi, sizga intilayotgan bir qalb bor va butun vujudi bilan sizni sevar ekan, yig'lab-yig'lab oh tortyapti. Uni bu holga solgan nima edi?

Bu qanday bir jon azobi: sochining bir tolasini ham zarar ko'rmasin degan insoningiz bilan ikki eshik orasidagi inson bir odam emasligining alamidan jon azoblanyapti.

Haqiqatan ham sevgan bir qalbga bu qadar og'ir yuk qanday qilib yuklanishi mumkin?



YO'QOTDINGIZ

Sizni yaxshilayotgan nimaiki bo'lsa, barini qo'ldan boy berdingiz. Sizni kutib, dardingizga kuyungan, chin yurakdan sevgan, har tongda derazangiz tagida ko'ringan go'zal insonlarni yo'qotdingiz. Shuning uchun ham bu dunyoda erishayotgan narsalaringizning hayotingizda hech qanday o'rni bo'lmaydi. Ketsangiz ham, sizni duo qilib kutayotgan insonlarni yo'qotganingizdan so'ng, hayotingizdagi voqealarning o'z o'rniga tushishini kutmang. Shosha-pisha hayotingizdan chiqarib tashlamoqchi bo'lgan narsalaringizga muhtoj bo'lasiz hali. Barcha qilgan noshukurliklaringizning badalini sizga berilayotgan mehrdan mahrum bo'lib to'laysiz. Niqobingiz yechilgandan keyin obro'yingiz ham tushadi. Shunda siz ko'rmaganlikka olgan hurmatning qadrini ko'rasiz. Siz unga qilgan zulmlarni ko'rmaganlikka olgan insonlarni bir chetda o'tirib qadriga yetasiz.

Bir jonni azoblash uchun ketkazgan harakatlaringizni, uni xursand qilish uchun sarflaganingizda edi, allaqachon bu dunyoning Jannat eshiklarini ochgan bo'lardingiz. Lekin sizga Jannatni ko'rsatgan insonlarning hayotini Jahannamga aylantirib, ortingizga qaramay chiqib ketdingiz. Endi qaytib kelmang...

Ko'nglingiz xotirjam bo'lsin.

Baxtsiz qilib, baxtli bo'lganlar yo'q bu dunyoda.

**Ertami-kech sizga qorong'ulik bag'ishlagan
insonlarning hayoti ham zulmatga aylanadi.**

Balki siz buni ko'rmassiz,

balki endi menga baribir dersiz,

lekin unutmang vaqt albatta o'chini oladi.

Sizni yo'lning o'rtasida yig'latganini unutarsiz,

hatto xiyonatlarini ham kechirarsiz.

Endi sizga ahamiyati bo'lmagan

bir paytda uning esiga tushasiz.

Borliqning qoidasi shu,

siz sog'ingan narsalar sizdan uzoqdadir.

Qachon undan voz kechsangiz,

shunda eshigingiz taqillaydi.

QALBINGIZNI ASRANG

Iltimos oldindan xulosa chiqarishga shoshilmang. Siz bilmagan, tanimagan insonlar haqida muhokama qilmang. Ko'chada sizga qilingan muomala uchun insonlar ustidan hukm chiqarmang. To'g'risi-da, o'tirib ikki og'iz gaplashmagan bo'lsangiz, insonlardan qanday qilib nafratlana olasiz? Nimaga, kimga asoslanib hukmlar chiqaryapsiz? Rostdan ham insoniylik tushunchasi shunchalar qadrsizmi, biz qachon undan kamchilik axtaradigan darajaga yetib qoldik?

Insonlardan yaxshilik qidiringki, qalbingiz go'zallashsin. Siz kulsangiz, osmon ham sizga tabassum qiladi.

Unutmang siz qanday bo'lsangiz qarshingizdagini ham shunday deb bilasiz. Umid qilamanki, sizning nazaringiz tushgan har yer gulab-yashnaydi.

Balki yillar o'tib ham ko'rmaydigan insonlarning gunohini yelkangizda oxiratga tashiyotgandirsiz. O'ylab ko'ring-a, siz tanimagan bir inson siz haqingizda qanday izoh berishini xohlardingiz? Siz gapirgan gaplarni orqangizdan aytilganini tasavvur qiling-a. Qanday munosabat bildirardingiz?

Agar "Lekin men u kabi emasman" deyayotgan bo'lsangiz, ularni qoralagan bo'lasiz va buni boshingizdan o'tkazmasdan bu dunyodan o'tmay-siz.

Chiroyli o'ylang. Qalbingiz yaxshiliklar bilan oziqlanib, qorong'uliklar bilan zulmatga cho'madi. Niyatlaringizdan doim nur sochiladi, degan umiddaman.

Qalbingiz chiroyli bo'lsin

Ha, har kungi ahvolimizni ko'rganimizda bu biroz qiyin tuyulishi mumkin, lekin qalbingizni chiroyli qilmoqchi bo'lsangiz hech narsa to'sqinlik qilmasligi kerak.

Qarshimizga turli-tuman insonlar chiqadi va chiqishda davom etadi ham. Sizdan olib ketganlaridek, sizga qo'shgan tajribalarga diqqatingizni qarating. Unutmang "Hayot sizni, sizdan olganlari bilan ulg'aytiradi". Boshingizdan nima o'tsa ham, qalbingizdan faqatgina yaxshilik o'tsin. Qoralamang, nafratlanmang. Intiqom hissiyotini kattalashtirmang. Albatta bu hissiyotlarni boshingizdan o'tkazasiz, lekin butun umr emas.

Vaqt sizdan biror nimani olmoqchi bo'lsa, qo'yib bering, olsin barini.

Vaqt, sen naqadar yaxshi malhamsan

Bizga azob bergan, hech o'tib ketmaydigandek tuyulgan barcha og'riqlarni o'chirib tashlagan sensan.

Hayotimizda o'rne katta bo'lgan insonlarning aslida chang zarralaridek oson uchib ketishlarini ko'rsatib berding.

Yuzimizdagi har bir ajin bizning bu sog'inchlariga o'rganib qolganimizdan dalolatdir. Oson bo'lib qoldi qo'l siltab ketishlar.

Omonat sevgilar bilan bezandi dunyoning ziyatlari.

Ey vaqt, o'rne kelganda sendan ham ranjidik. Barcha xotiralarni o'chirmaysan deb o'yladik, lekin yashab bildikki, sening ortingda xotiralar kundan kun zarralarga aylanib, izlari ham qolmadi.

SEVISHDAN TO'XTAMA

Baxtli qiling, baxtli bo'ling. Sizga adolatsizliklar qilinishi tabiiy, chunki bu borliqning qonuniga aylangan. Adolatsizliklar qarshisida yiqilmasdan oyoqda tik turing.

Albatta xafa bo'lib ranjigan kunlaringiz bo'ladi. Ammo xavotirlanmang, ko'z yosh to'kmasdan uxlaydigan kunlaringiz ham keladi. Qo'lingizdan kelganini bajarganingizdan so'ng orqangizga suyanib o'tiring va qolganini ilohiy adolat qo'liga topshiring. Sizga qilingan adolatsizliklar erta-mi-kech o'rmini topadi. Siz xafa qilib qo'yishdan qo'rqqan insonlar sizni chilparchin qilganlarida, har kim uchun ham hamma narsadan voz kechib bo'lmasligini tushunib yetasiz. Shunday bo'lgan taqdirda ham qalbingiz go'zal qolsin. Yangi kunni boshlashdan aslo cho'chimang.

Yangi insonlar bilan tanishing.

Yangi joylarni kashf qiling.

Kitob o'qing, musiqa tinglang. Ammo ketib bo'lgan insonni endi aslo kutmang. Qaytib kelsa ham, endi hech narsa oldingidek bo'lmasligini biling.

Chiroyli sevib, chiroyli yashang.

ISTANBUL, AYRILIQ SHAHRI

Aslo ketmayman, ulardek emasman deb turib tashlab ketganlar qancha. *Istanbul vidolashmay ketgan muhabbatlarga to'ladir. Dengizning qirg'oqqa urilishi ham shundandir balki... Sen bundan ham yaxshisiga loyiqsan, sen judayam yaxshisan, degan so'zlarni eshitganimdan beri yaxshi bo'lishning aslida yaxshi emasligini tushunib yetmoqdaman.*

Sizning tark etishingiz ham qo'rqqoqlik timso-
li aslida... Men sizni yiqilmas tog' deb bilardim.
lekin qaragam katta bir bo'shliq ekansiz va men
u bo'shliqdan chiqqanimga ancha bo'ldi. Menim-
cha, sizning ketganingiz ma'qul. Ojiz jumlar
tilingizda aylanayotganida men qaytmasligim-
ga amin edim. Qalbingizni arzon insonlarning
sevgisiga o'rgatib qo'ymang. Sizning sevgingiz
yuragi kichik insonlarga og'irlik qiladi.

Sevsangiz uzoqdan seving. Sevgingizni payqa-
magan bo'lishsa, jim turishni afzal biling. Jim turi-
ngki, sizning sevgingizdan faxrlanib ketishmasin.
Siz mamnuniyat bilan uni unutayotganingizda, "u
meni hali ham sevadi", deb o'ylasin.

MENING BORIM SHU

Yaxshiliklarga ega bo'lmagan insonlar uchun men hech qanday va'dalar bermayman. Men qanday bo'lsam shunday bo'ldim. Kimdir meni sevishi uchun yolg'ondan ularning yuzlariga boqib kulmadim. Yuzlariga ayta olmagan gaplarimni ham orqalaridan gapirishga urinmadim. Kimningdir o'rnida bo'lishni xohlamadim. Men turgan joyimni sevdim. Yarim yo'lda qolsam ham sevganlarimni yo'l o'rtasida qoldirmadim. Xafa bo'ldim, yig'ladim, ranjidim, lekin hech ham arazlamadim. Boshimdan kechgan hamma narsadan xulosa chiqardim.

Qo'limdan kelgan hamma narsani qilganimdan so'ng qolganini Allohga topshirdim. Qanchalik yaxshi bo'lmasin insonlar hammani o'zlari kabi deb o'ylashadi, shuning uchun ham o'zimdek bo'lishdan aslo voz kechmadim. Harakat qildim, o'zimni tingladim.

Men tomon bir qadam ham tashlamaganlar uchun tizzalarimni qonatdim. Boshimni yostiqqa qoʻyganimda tinch bir halovatim bor edi. Bundan-da ortigʻi boʻlmaydi. Doimo vijdonimga munosib boʻlganini ado etdim. **Qalbimga munosib boʻlmaganlarni esa munosib boʻlgan joylarida qoldirdim.** Aslida inson vaqt davomida qarshisidagi insonning keyinchalik qanchalar soxta insonga aylanib qolishini sezadi. Buni qanday qilib uddalaysiz bilmayman, lekin ketishingizdan oldin koʻzimizga tortilgan pardani surib ketasiz. Yaxshiyam koʻzimizdagi parda olinadi, boʻlmasa biz oʻsha yolgʻon sahnalarning rost ekanligiga oʻzimizni ishontirar edik.

ILK YARAM VA MALHAMIMSIZ

Baxtdan ichingizga sig'may birinchi siz
osmonlarga uchasiz, keyin esa umidlari-
ngiz. Nima bo'lganini bilmasdan turib kurashasiz.
G'olib yoki mag'lub ekanligingizni ham bilmaysiz.
Yoddan bilgan barcha yo'llaringizdan ham adasha-
siz, hatto o'zingizga begona bo'lasiz, o'sha siz taniy-
man deb o'ylagan bir begona inson tufayli.

Ilk mag'lubiyatingiz.

Ilk sevgingiz.

Ilk yarangiz.

Hammasi tugashini istaysiz.

Xuddi men tugashini xohlaganimdek. Xud-
di mening ranjiganim kabi siz ham xafa bo'lasiz.
Yolg'izlikdan ich-etimni yeyayotgan shu paytimda
hech kimdan xafa emasman. Shu onda xayollarim-
dagi so'roq ishorasi bilan kurashyapman.

“Nima bo'ldi, qanday bo'ldi, kim ketdi, nega
ketdi, kim aybdor, kim kuchli? Yarim yo'lda qolgan
ham kuchli bo'la oladimi?”

Xafa bo'ldik.

Soch ildizlarimizdan tortib to qalbimiz hu-
jayralariga qadar.

**Birinchi bora sevilyapman deb hayajonlan-
sak-da, yolg'iz qolganimizda hech ham sevilma-
ganimizni anglab yetamiz.**

MEN SIZDAN KECHDIM

Men endi sizdan xafa bo'lmayman. Zero, Mbuning uchun endi siz xafa bo'ling. Kelmikan deb, kutmayapman. Sizga kelmang, deb butun yo'llarga otash yoqqanimga esa ancha bo'ldi.

Sizni sevmayman.

Sizni o'ylamayman.

Sizni xohlamayman.

Eng yomoni nima bilasizmi?

Endi sizdan nafratlanmayman ham.

Siz qiyomatga aylantirgan dunyoyim endi yanada sokin. Ko'chalarimda bolalar ovozi, kulgulari eshitilib, ayni damda ularning qo'llarida rangli sharlari ham bor. Siz men uchun yarim chala yozilmay qolgan bir she'r kabi, unutilgan va hech kim xabar ham olmaydigan shahar kabi xotiramda qoldingiz.

Qarang!

Qarang mensiz naqadar qadrsiz va oddiysiz. **Ishoning mensiz achinarli holdasiz.** Qabul qiling, endi sizni chiroyli deb hisoblamayman va bir chetda turib olib, qilgan nohaqliklaringizni suratga ham olmayman. Lekin sizga isyonim ham yo'q shu onda. Qarang!

Qarang, mensiz urmagan bir yuraksiz.

Endi yig'lamayman.

Agar yig'lamoqchi bo'lsangiz, siz aynan shular uchun yig'lang.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

XUNUK QALBLARDAN GO'ZAL SEVGI QIDIRILMAYDI

Kurashing, faqat o'zingiz uchun kurashing, sizni urush maydonida qoldirib ketgan odam uchun emas. Seving, sizni sevgan insonni emas, sevingizga loyiq bo'lganini seving. Bu u ham sevishiga majbur degani emas, albatta. Ming afsuski hayotda hamma narsaning ham go'zal javobi bo'lmaydi, shuning uchun kimnidir sevmochi bo'lsangiz sevgingizni hurmat qiladiganini seving. Zero, ba'zi bir sevgi oshnolari insonlarga qalblarini ochganlarida ichlaridagi hislari jo'sh urib ketadi. Urunishlaringiz befoyda bo'lsa, qo'lingizdan kelganicha harakat qilsangiz ham qalbingiz ozorlanayotgan bo'lsa, uni o'sha yerning o'zidayoq qoldiring. Unga unutilish juda yarashadi. Unutish oson ish emas. Kuch kerak, iroda kerak. Ammo sevgingiz qanchalik katta bo'lsa, kuch-irodangiz ham shunchalik ulkan bo'ladi. Unutishga majbursiz. Chiroyli kunlarda ketmoqlik uchun, bo'lar bo'lmasga yig'lamaslik uchun ham unutishga majbursiz. Chunki insonlar juda bevafo, sizning sevgidan qilgan muomalangizni ojizlik va kuchsizlik deb ataydilar.

Aslida sevish taslim bo'lish degani. Buning naqadar go'zalligini hech ham sevmagan insonga tushuntirish befoyda.


YANGLISH YO'LGA KIRDIK

Har safar boshlagan joyimizga qaytdik. Qilmayman degan xatolarimizni bir necha bor takrorladik. Xato deganim, ba'zan yaxshiliklar ham xato bo'lishi mumkin, shuni nazarda tutyapman. Masalan, bir gulga har kuni suv quyasis, suhbatlashasiz, derazadan quyosh nurlari tushadigan joyga qo'yasiz. Keyin bir qarabsizki, hech katta bo'lib o'smaydi, shunda u yasama bir gul ekanligini anglaysiz. Ko'rdingizmi qadr bilmaganni qadrlash ham xuddi shunday aslida.

Ichingizda chaqmoqlar chaqsa ham siz uni xafa qilib qo'ymaslikka harakat qilasiz.

Ichida maysa unmaydigan insonlarning qalbiga majburlab gullar ekishda davom etdim.

Soxta gul nima-yu, sizni tushunmagan bir qalb nima? Bu ikkisiga bergan mehrim meni muvaffaqiyatga olib borganini ko'rmadim. Ha, hamma narsaga ham javob kutish noto'g'ri, albatta, lekin inson ozgina bo'lsa ham sevilishni istaydi.



Hayotimizda adashishlar juda ham ko'p, to'g'rimi? Xato qilishdan, adashishdan qo'rqmang. Tajribalar to'plang... Shunda keyingi bo'ladigan voqealarga nisbatan dunyoqarashingiz kengayadi. Ranjidim deb o'ylagan vaqtlaringizda o'zingizning ham aybingizni ko'ra boshlaysiz.

Xato qilishdan emas, xatolarni takrorlashdan qo'rqing.

ISHQNING ADOLATI

Men har doim ilohiy adolatga ishonдим. Kimdandir intiqom olish niyatim aslo bo'lmadi. Chunki bilaman, vaqt eng buyuk qasoskordir. Qilingan yomonliklarning javobsiz qolganini ham ko'rmadim. **Robbim ba'zi narsalarni oxiratga qoldirmaydi.**

Ba'zida aytilgan yolg'onlarni, "Yaxshilikka aytilgan yolg'on edi, sen uchun aytdim" kabi vijdonni tinchlantiruvchi so'zlarga aslo toqat qilolmadim.

O'rtada mavjud bo'lgan yolg'onlarni ma'sumlashtirish vijdonning qorayayotganidan xabar bergan eng buyuk dalolatdir.

Har doim shunday derdim: "Atrofimdagi hamma mendan ham baxtli bo'lsin". Shunday baxtli bo'lsinlarki, mening baxtsizligimdan xursand bo'ladigan darajada o'zlarini yerga urmasinlar".

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Ba'zan, ayniqsa bir o'zim qolganimda
yolg'izligimni his qilaman. Bu zamonga oid
emasdekman go'yo,
balki shundandir orada qolib ketishlarim.
Insonlarning kibridan uzoq,
bir-birlari uchun haqiqatan ham kurashgan,
qadrlagan, harakat qilgan o'sha davrlarda
yashashni har doim orzu qildim.
Bu davrning insoni emasman.
Insonlarga o'zimni ochiqalay olmasligim,
ularning esa meni tushunmasliklari
shundandir balki.

SIZNING KETISHINGIZ MA'SUMIYATIMNING OZODLIGIDIR

Hozir ketmoqdasiz.

Hech kelmaganday, hech sevmaganday.

Barcha qilingan orzularni kuldek sovurganday.

Ketishning ham o'z odobi bor. Vijdoningizni qiynamay ketishning o'rniga meni qo'yib yuborish uchun harakat qildingiz sevgilim. Bu eng katta vijdonsizlik emasmi axir?

Bu sevgan bir qalbga qilingan eng buyuk gunohdir.

Yarim kechani yotog'imning o'rtasida yig'lab o'tkazdim. Bu osonlikcha bitib ketadigan qalb yarasi emas.

Bu bir mamlakatning mag'lubiyati, bir imperatorning o'limi, yengilgan davlatning egasiz qolishidek gap.

Buni anglab yetish uchun balki bulutlardan sakrashim kerakdir. Ko'z yoshlarimni cho'ntagimga solib, bir yerda jimgina ichimdagi jajji qizaloqning sochlarini tarab yig'lashim kerakdir balki.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Rostan ham, nega ketdingiz?

Balki sizdan nafratlanganimda ishim oson ke-
chardi.

Biroz jahlim chiqib, biroz koyib qo'yarmidim.

**Ammo men haliyam o'zimdanda xafa bo'lgan-
cha, xato qidirib, sizni sevib kutyapman.**

**Ko'rdingizmi, bu chorasizlikning eng baland
cho'qqisidir.**



MENSIZ ACHINARLISIZ

Meni unutmang demayman. Siz unuta olmaysiz. Ichingizdagi sevgi tugab bitadi, meni oldingidek sog'innaysiz ham. Meni eslamaydigan kunlaringizni intizorlik bilan kutasiz hali.

Leikin unuta olmaysiz.

Chunki dunyodagi har bir qalb naqadar yomon bo'lsa bo'lsin, ammo ozor chekkanida uni sevgan qalbn hamisha qo'insaydi. Siz, sizni sevgan qalbn sindirdingiz. Qarang, bundan yomoni yo'q. Men sizni astrayotgan vaqt siz o'zingizga eng katta yomonlikni tiladingiz.

O'zingizni yaxshi his qilasisz, biroq qalbingiz sigiladi, **qahqahalaringiz qichqiriqlarga almashganida meni eslang.**

Oyoqlaringiz sovuq yeganida ularga yiqilganimni eslaysiz. Aynan o'sha vaqtda bu oyoqlar mendan keyin hech qayerga olib bora olmagilgini anglab yetasisz. Tamaki tutunida sarg'aygan barmoqlaringizga nazar tashlaganingizda, sizga tamakining zararlarini uzoq tushuntirganimni eslaysiz. Eng katta zarar mensizlik ekanini anglaysiz. Kulgularingizda ham yuzingiz burushadi.

Balki mendan keyin hayotingiz iziga tushib ketadi. Yanada sokin bo'lasiz. Yon stoldan qahqahalaringiz eshitiladi. Boshini ko'tarib sizga qaragan hamma naqadar baxtli ekan, deb o'ylaydi, biroq ichingizni kemirayotgan bu narsa nima ekanini bilmaysiz – bu bir bo'shliq xolos.

Chunki sizning haqingizga duo qilgan bir qalbn sindirdingiz. Sizni himoya qilguvchi bir til-sim yo'q endi.

Siz tashlab ketganingizni payqamaysiz ham. “U bo'lganda ketmasdi”, dersiz balki. **O'sha damda yuragimning boshqa shaharlarga ko'chib ketganini, boshqa she'rlarda yangraganini tushunib yetasisz.**

Shunda men boshqa bir insonni sevayotgan onimda “Meni juda sevar edi”, deysiz afsuslana. Uning o'rnida emaslingiz uchun har kunningizni lanatlaysiz.

Siz meni unuta olmaysiz.
Ammo men sizni unutaman.

Yuragimni bir kapalakning qanotiga bog'layman va moviy o'lka tomon uchib ketaman.

Hatto naqadar ko'p sevilganimni his qilib, “Yaxshiyam o'tib ketti”, deyman.

Eng yomoni ham shu emasmi aslida? Sizni juda qattiq sevgan insonlarga sevilish tuyg'usini unutirib, “Yaxshiyam tugabdi” deysishlari – sevgan bir qalbg berilgan eng katta zarbadir bu. Sevilishni unuttirmoq eng oson harakatdir.

HAR QALBDA HAM SEVGI YO'Q

Sizni xursandchilikdan bulutlar ustiga solib chiqqan va aynan o'sha bulutlarga orzularingizni osishingizga sababchi bo'lgan inson u bo'lsa, ortiq u insondan sevgi kutmang.

Qizil qor yog'ishini kuting-u, lekin o'sha insonning sizni sevishini kutmang, sizni muruvvatli so'zlar bilan quchoq ochishini kutmang.

Hamma qalbni sindira oladi. Bu odatiy holga aylandi. **Chilparchin bo'lganingizda yoningizdagi inson sizning parchalaringizni yig'mayotganligidan afsuslaning.**

Umidingizni esa cho'ntakingizga avaylab joylab, u hayotdan uzoqlashing.

Qaytaman degan insonlarning ortidan eshikni birinchi siz yopib qo'ying. Ketishlariga qo'yib bering.

Ular sizdan tortib olgan narsalarni esa ehson deb biling. U sevilish qanday ekanligini siz orqali his qildi. Unutilganini his qilishiga ham zamin yarating.

Sevgida ketish chiptalari bor, lekin qaytish chiptalari hech qachon bo'lmagan. Bu yer shunday bir dunyo. Sevgini tushunmagan insonlarga sevgini ravo ko'ramiz va muhabbat o'sha onda sekin-asta tugab borayotganiga guvoh bo'lamiz.

QALBIM YOLG'ON SEVGILARGA YOPIQ

Siz o'zim bilan olib borgan birinchi jangim Semassiz. Lekin o'zimga nisbatan erishilgan ilk mag'lubiyatimsiz.

Shu sabab endi siz kelmang. Charchaganingizda siz orom oladigan so'nggi bekat edi qalbim. Har safar men bilan hisoblashmay ketdingiz, lekin men bir marotaba bo'lsa ham orqangizdan bormadim. Va siz o'sha bekatda isinish uchun qoldingiz.

Aynan shuning uchun sizga nisbatan ko'nglim sovidi. Yonmoqchi bo'lsangiz endi siz buning uchun yoning.

Men sizni tamaki chekishdan asrar edim. Qarang, mendan qolgan kullar to'lib-toshib ketdi. Zero, yoqmoqchi bo'lsangiz endi xotiralarni yoqing.

Kunlar o'tib, hammaga o'xshab qolibsiz. Kulishingiz, teginishingiz, turishingiz ham oddiy bo'lib qolibdi. Hatto sochlaringiz ham oddiy bo'lib qolibdi. Siz endi hech narsaga arzimaysiz. Siz mening yoddan bilgan yo'llarim edingiz. Men ortiq u yo'ldan yurmayman. Endi mahsharda ham yo'lingiz yo'limga tutashmasin.

Tabassumingiz boshqa ko'zlarda aks etibdi, aynan shuning uchun endi qorong'u ko'chalarigizda sayr qilmayapman. O'z ko'changizda adashib qolganingizda, qalbingizdagi yo'llarning loyqalanganini payqaysiz.

Songul Unsal

Siz jarohatlaringizni davolab, meni yaralab ketdingiz. Qarang, bu o'lganda ham unutiladigan narsa emasdir balki, lekin men shuni ham unutdim.

Meni sevganingizni.

Qo'shiqlar aytganingizni.


Menga, hech sevmay termulganlaringizdan so'ng, sayr qilgan barcha yo'llarimni unutdim.

Tabriklayman sizni. Qarang, bizni tugatdingiz!

Voz kechdim.

Begonaday so'zlashganingizda, chindan ham begona ekanligingizni anglab yetdim. Men o'z dunyoyimni o'zim yaratibman. Aslida siz jumlalaringizni yolg'onlar bilan bezatayotgan fursat, ko'ra-bila turib ishongan men bo'libman.

Siz mening boshimdan qalbim nomunosib bo'lgan narsalarni o'tkazdingiz. Bundan keyin siz, o'zingizga munosib bo'lgan narsalarni boshingizdan o'tkazing.



Biz sizning g'ururingizga

yengildik.

Kibringiz sababli

yo'llarimiz ayrildi.

Endi hech qaysi yo'l

bizni birlashtira olmaydi.

BIZ TUGADIK, SEVGILIM

Bu safar haqiqatdan ham tugadik. Chunki endi hatto men ham harakat qilishni xohlamayapman. Ichim sizga aytolmaganlarim bilan to'la. **Hatto endi bir-birimizni bag'rimizga bossak ham kulgularimizdan ayriliq sezilib turadi.**

Barchaga isyon qilgan sevgimdan boshimni egib chiqib ketmoqdaman...

Bu safar kelmang deb barcha yo'llarga otash qo'ymoqdaman. Menga keladigan har qadamingiz ostini tikanlar bilan to'ldiryapman. Bilaman, o'zingizni yaxshi ko'rasiz. O'zingizni asraysiz.

Men ham sizni asrar edim. Masalan, hammaga qarshi qurgan devorimni siz oshib o'tishda qiynalmang deya o'z qo'llarim bilan buzib tashlagandim.

Keyin tushunib yetdim, o'sha devorlar ustimga qulasa-da, siz o'rningizdan turib ustimdan bir dona g'ishtni ham olib qo'ymabsiz. Inson qanchalik ranjiganini azobni unutganidan keyin fahmlay boshlar ekan. Uni diqqat markazidan chiqarganidan so'ng, ahamiyatli emasligini kechroq tushunib yetar ekan.

Bu safar haqiqatan ham afsuslandim.

Afsuslandik deyayotganim yo'q, chunki sevgingizga amin emasman. Lekin afsus chekmaganingizga ishonchim komil.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Biz tugadik, sevgilim. Endi hech bir yo'lim siz tomon olib bormaydi.

Sizga muhtoj bo'lgan mahal qo'llarimni kesaman-u, lekin sizga qo'l ochmayman.


Ichim sovudi. Yoz fasli bo'lsa ham, yarim kechada meni ko'zlarimdan oqgan selga g'arq qilganingiz uchun sizga bo'lgan sevgim so'ndi.

Sizga ko'rsatadigan nafratim ham yo'q endi. O'zingizni shu qadar mustahkam tugatdingiz.

Ortiq, kelarmikan deb kutmayapman. Kelsangiz ham tilingizda yolg'on bilan kelasiz. Bu safar qalbimdagi jamiki sizga atalgan go'zal tuyg'ular nihoyasiga yetdi.

Siz hayotingizdagi so'nggi uyni yoqdingiz. Soyasidan bahramand bo'ladigan so'nggi daraxtni ham o'zingiz arraladingiz. Sevgi oldingizga taom kabi tortiq qilinsa ham och qolasiz. **Borgan joylaringiz sizga yarashibdi.** Men bu lahzadan so'ng sizga begonaman.

Otash yoqib ketganingizdan buyon ichimdagi barcha yaxshiliklar kulga aylangan. **Endi sizga unutilish yarashadi.**




*Siz vayron boʻlgan bir shaharning
dengiz qirgʻogʻidagi mavjlarisiz.*

*Urushdan chiqqan bolalarning
qoʻlida ushlagan oʻyinchogʻidek
qadrli va umidga toʻlasiz.*

*Qaqshagan choʻlga yuz yillardan
keyin yogʻgan yomgʻirsiz.*

*Siz, nuragan devorga chiroy
qoʻshgan moychechaksiz.*



BU YO'LLAR KETISHINGIZ UCHUN QURILDI

Sizni kechirmayman va sizni kechirish naqadar qilolmaysiz. Siz uchun onangiz kabi qayg'ursam ham, meni sizdan voz kechishimga majbur qildingiz.

Ichimdagi g'alayonni ko'ra, bila turib mendan ketayotganingizda ko'ngilxushlik bilan bayram qilganingizni aslo unutmaysan. Bayramingiz janozangiz bo'ldi-ku, buni ko'rmaganlikka oldingiz.

Qanday tark etish edi bu?

Ketishning ham o'z odobi bor. Bu qanday o'zini sevishlik! **Sizga ochgan barcha yo'llarimni yopib ketishingiz nimasi?**

Men sizga yengildim. To'ydim. Muhabbatda had-dan ortiq sevishning, fidokor bo'lishning havoga sovu-rilishini bilmas edim. O'nglamoqchi bo'lgan narsala-rim meni xarob qilishini, hayot tarzimni barbod etishi-ni bilmas edim. **Men sizga eng sof holim bilan borar ekanman, siz eng yomon holingiz bilan tark etdingiz.**

Naqadar xunuk ketish edi bu! Do'st-dushmanni kuldirдингiz. Barchasi tugaydi deganlarning haqli hayqiriqlarini eshitmaslik uchun berkingan joyla-rimda izlarim qoldi.

Haqiqatan ham orzularimdan nimani istadi-ngiz? Men sizga go'zalliklarni tortiq qilgan edim. Nega tuyg'ularimiz bu qadar xunuk yakun topdi?

Samoni bir tugunga bog'lab, zimistonga aylan-tirib ketish kerakmidi?

Men sizni xohlasam ham kechira olmayman. Ha, sizni unutaman, lekin kechirmayman. **Bu safar shafqat ko'rsatadigan men bo'lmayman.**

Avval mavqeyingizni yo'qotdingiz. Keyin ko'z o'ngimdagi va ko'nglimdagi hurmatingizni yo'qotdingiz. Yiqilgan joyingizda sizni kim suyab turg'azib qo'yishi endi menga ahamiyatsiz. Jirkanch qalbingizdagi "go'zal" zafaringiz bilan qutlayman.

Sevilmaslik qalbingizda aza ochadi. Ko'zlarinigizdan oqadigan yosh har kun yaralaringizni tuz bilan yuvadi.

Bugundan e'tiboran sizning ismingiz lug'atimdan joy olmaydi va mening xursandchiligimga sizning qayg'uyingiz xalal berolmaydi. Bundan keyin o'zingizning yarangizga o'zingiz malham bo'ling. Sizning sevgingizning ayriliqdan farqi faqat hijron edi.

Bu yerlarda sizning so'zingiz o'tmaydi. Yugurib keladigan yo'llaringizga otash qo'yishga majbur bo'lganim uchun ham sizni kechirmayman. **Va sizni kechirmaganim uchun har kuni qalbingizni tirnaysiz.** Qaytib kelishingizning men uchun qadri qolmaganiga ancha bo'ldi. Siz bilmaysiz, men hamma narsadan boxabar edim. Sabr qildim. Sabr bilan sevgim ham chiroy ochdi. Balki sizni yaxshi deb bilishim ham shundandir. Lekin bundan keyin sizning hech bir iztirobingizni ko'rmayman. Eshitmayman. Bilmayman.

Bunday vaziyatlarda inson eng ko'p qilgan harakatlari puchga chiqqanidan xafa bo'lar ekan. Ayriliq degan so'zni tilga olmasdingiz, lekin bir

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

onda hayotimdan chiqdingiz. Siz mening o'rnimda bo'lganingizda o'zingizni kechirarmidingiz? Ayni damda qaysi uzr qabul qilinadi bu yurakda? Barcha go'zalliklarni to'plab kelsangiz ham o'sha xunuk ketishingiz yodimdan hech chiqmaydi. Balki qiyin kunlarni boshimdan o'tkazarman, o'zimga kelolmasman, lekin sizga aslo qaytmayman. Bu safar qalbim ishqning va kechirimning xiyonatlari bilan liq to'la.

Izlashdan, so'rashdan voz kechdim. Tilingizda menga notanish bo'lgan bir qalbning nolasi bo'ladi. Siz meni, siz pisand qilmagan ovozimni sog'inasiz hali. U bo'lsaydi, ko'p gapirsaydi deysiz. O'shanda, faqat sevgan ayolning doim urush chiqarishini, pashshani ham filga aylantirib, chorasini ham o'zi topishini anglaysiz.

Bu safar qiyin muammolaringizga oson yechimlar topilmaydi. Kirgan har bir yo'lingizning oxiri bo'lmaydi, dengizlaringiz suvi esa qoramtir rangga kiradi. Barcha yo'llarning nihoyasi yo'qligini sizni yelkamdan tushirganimda anglab yetasiz.



ENG GO'ZAL XATOYIM

O'zimdan jahlim chiqyapti, hatto la'natlar bo'lsin deyapman. Qalbinga bergan barcha ozorlaringizga qaramay sizning ozgina bo'lsa ham harakat qilishingizni kutmoqdaman. **Go'yo ustimni bosib qolgan devordan birgina g'ishtni olsangiz, yaralarim tuzalib, o'sha sevgi xarobasidan sog' chiqadigandekman.**

O'zimga ham achinaman, hali-hanuz sevgi eng ko'p sizga yarashadi, deb o'ylayman. Sevmandek ketishingizga qaramay, go'yo meni qattiq sevgansiz, deb sizni kutyapman. Kutish bekor ekanligini, ketganning qaytmasligini shu qaysar yuragimga hech uqtira olmadim. Qanday ishonibman, qalbimni qanday ishontiribsizki, hali ham qayerlardandir chiqib kelishingizni his qilyapman. Bu bir bemorning so'nggi nafaslarida yashashni orzu qilishi bilan barobar. Ba'zan shunday bo'lib turadi. Inson kimnidir o'limini osonlikcha qabul qilmaydi. Bu muhabbatning ustiga allaqachon tuproq tashlanibdi. Jannatimdan gullarni o'g'ir-lab Jahannamga olib kirolmaysiz. Sizni hatto u yerga ham kirgazishmaydi.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Katta bir xato.

Tugagan bir kitob, hech bir radioda uzatilmaydigan qo'shiq.

Qiroli yo'q shahar.

Yo'llarim yo'llaringizga tutashmaydi, bilaman. **Ustiga-ustak siz meni yarim yo'lda qoldirgan o'sha yo'ldan qaytib o'tmabsiz ham.** Yo'qsa ortimga qaraganimda hech bo'lmasa sirtingizni ko'rar edim. Bu shaharda izlaringiz ham qolmabdi. Tirikmisiz? Birdaniga kunduzlarim bedor tunlarga, xursandchiligim g'am-qayg'uga qorishib ketdi. Haqiqatan tirikmisiz? Nafas olayotganingizda sizning ham tomog'ingizni tig'lar tilyaptimi?

Hamdardlik bildiraman.

Vayrona bir shaharda tartib o'rnatishga urindim.

Hamdardlik bildiraman.

Ustimdan yolg'onga burkangan bir sevgi bosib o'tdi.

Biroz xiyonat.

Biroz ikkilanish.

QALBI NOSHUKUR BO'LGAN INSONNI SEVDIM

Bu zilziladan tirik chiqolmayman, afsusdaman. Bu o'ylagandek oddiy bir qimirlash emasdi. Bu xuddi miyamga qizib turgan mixlarni sachratgan zilzila edi. Berilgan va'dalarning bekor ekanligini hazm qilish bilan o'tdi oylarim. Nima bo'ldi, qanday bo'ldi deyishimga ham ulgurmasimdan allaqachon hammasi sodir bo'lgandi.

Bir inson qanday qilib bu darajada insoniylikdan uzoqlashib ketishi mumkin.

Mehr-shafqatingizni kimning qo'ynida unutingizki, bu shaharga bunday marhamatsizliklar qildingiz.

Siz ham haqlisiz. Sizni boringizdan ortiq sevdim. **Siz ko'rmagan, balki endi umuman ko'rmaydigan bir sevgini qo'llaringizga topshirdim. Sizni ayblamayapman. Boshqasi bo'lganda ham bu sevgining og'irligini ko'tarolmasdi.** Sizning bilaklaringiz baquvvat bo'lsa ham bu ishqning yukini ko'tarolmadi. Kuchli inson rolini o'ynayotgan kuchsiz insonlarga minnatdorlik bildirish qiyin bo'ladi.

Boshqasi bo'lganda ham yarim yo'lda qoldirardi. Boshqasi bo'lganda ham sevishga jasorati yetmas edi.

XASTA SOG'INCHIM

Sizning sog'inchingizdan juda qiynaldim. Inson sog'inayotganida hech o'ylay olmas ekan. Menga juda ko'p tanbeh bergandingiz. Eshiklarni yuzimga yopib ketib, qaytib kelmasligingizni aytgan bo'lsangizda deraza ortidan sizni kutdim. Bu ham mening xatoyim. Bu ham sevgimning iztirobga to'la holatidir.

Kecha sizga juda muhtoj edim. Siz ustimdan qulflab ketgan o'sha uyda yong'in chiqdi. Lekin sizni topa olmadim. Eng og'riqli nuqta ham shu edi aslida. Inson aynan mana shu damlarda hamma narsa tugaganini anglar ekan. Yarim tundan yotoqdan sakrab uyg'onganingizda, yaxshi bir xabar eshitganingizda va uni topa olmaganingizda tamoman tugab bitganingizni tushunib yetasiz.

O'pkamning chap tarafi.

Jonimning bir parchasi.

Jon parcham.

Aytilgan har bir kalimaning endi befoyda ekanligini bilganimdan jim turibman. Ustiga-ustak sizga tushuntirganlarimni ham anglab yetmadingiz. Hatto noto'g'ri tushundingiz. Siz uchun ko'rsatgan barcha harakatlarim sizni mendan yanada uzoqlashtiribdi. Bir insonga bu qadar yomonlik qilinmaydi. Siz qanday qilib buni menga ravo ko'rdingiz?

Jim qolishim hech nimani anglatmasligini bilaman.

O'zgardim. Juda o'zgardim. Men qabul qilolmagan hamma narsaga ko'nikdim. Deraza ortidan kutiyotganim yo'q endi. Bilaman siz endi mening ko'chamdan o'tmaysiz. Men sizning ko'chalaringizda yutqazganimcha qolaveraman.

O'zgarmagan yagona narsa – sog'inch. Kunlar o'tib chidamli bo'lib, yanada kuchli qilmoqda. Ba'zan nafasimni qisib qo'yadi, deb qo'rqaman. Oyim bilan ko'zimiz ko'zimizga tushmasligiga harakat qilgan ko'p vaqtlarim bo'ldi. Xuddiki bir marotaba ko'zlariga boqsam hamma narsani bilib qoladilar, deb qo'rqdim. Bilaman menga eng ko'p oyim qayg'uradi.

Sog'inyapman.

Hatto sizdan ranjiganimni ham unutib qo'ymoqdaman. Ismingiz tilga olingan paytlarda boshimni yerga egyapman. Yashirincha kulib qo'yayapman. Xafaligimni payqaysiz deb kutiyapman. Xafa emasman, xavotir olmang.

Faqatgina bezarar tarzda sog'inyapman.

Eng kutilmagan onda.

Bir qahqahaning o'rtasida.

Yarim kechada.

Ertalablari azonda.

Kiemi yoq'iz deb o'yladilar

Peshonamdan o'psangiz,

Ko'zlarimdan oqadigan

ikki tomchi yosh,

Qalbimning so'ligan gullarini

jonlantiradi.

CHARCHAGAN QALBLARIMIZ

Yolgʻizliklar uchun keragidan ortiq xafamiz menimcha.

Ortigʻi bilan charchaganmiz. Ustiga-ustak ishonchimiz ham qolmadi. Ichimizdagi shahar vayron boʻldi, lekin koʻchalarimiz hali ham bolalar ovozigacha toʻla.

Bayramlarda eshigimiz qoqiladi.

Hayotimizga kirgan hamma sen juda yaxshi bir insonsan deydi, ishonadi. Ketadilar, biroq hozir masalamiz bu emas.

Arzimaydigan insonlarni qadrlaganimiz uchun ham yolgʻizmiz.

Bu esa ularning xatosi boʻla qolsin.

Yolgʻizlik eng koʻp chiroyli sevganlarga yara-shadi. Qalb sindirib yolgʻiz qolganlar esa jazosini tortishadi. Ular bizning safimizda emas, adashtirib yubormang.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Yolg'izlar sifatida keragidan ortiq hurmat ko'rsatyapmiz. Sevgiga ojizmiz, masalan, kimdir kelib yolg'ondan sevgi izhor qilsa, rost deb o'ylab, uni sevib qolamiz. Keling, xatoni ozgina o'zimizdan ham qidiraylik.

Masalan, ba'zilar ketishini oldindan bildirib qo'yadilar. Buni esa biz qabul qilolmaymiz. Qabul qilganimizda edi, u ketmasidan oldin biz ketardik va balki bu qadar jonimiz azoblanmas edi. Sevgini inkor qiladiganlarga oshiq bo'lib, sevgiga isyon qil-yapmiz.

Bu shaharda radiodan qo'shiqlar eshitadigan juda kam inson qolgan. Javobsiz sevganlar sifatida o'zini sevganlar tufayli sevgini isrof qilganlarga to'lib ketibmiz.

“Bu shaharning
yolg‘izlari
ortig‘idan ko‘p”.



SEVGI QALBINGIZDAN XABAR OLMAYDIMI ?

Bu bir tark etishning sanchiqli og'rig'i. Bu bir zilziladan qolgan xaroba. Bu azobli bir ayriliq xolos. Sizga doir nima kitob bo'lsa, hammasi changli bir javonga taxlandi.

Ilk boqish.

Ilk teginish.

Ilk xiyonat.

Ichimga yutolmagan nimaiki bo'lsa, yuzingizga tupurolmaganimdan jim turibman. Ketish bunday onlarda eng yaxshi yechimdir. Qolsam o'zimga xiyonat qilaman, ketsam yarim yo'lda qolishlik azobi qiynaydi.

Albatta, ketish juda og'irlik qiladi.

Ketyapman men ham. Sevmaganimdan emas, sevimaganimni asl holini ko'rganimdan ketyapman. Bu oxiri degan hech bir maktub va qo'ng'iroqlarning oxiriga yetolmadim. Lekin hozir sizni qog'ozga so'nggi bora yozmoqdaman. Hamma yerda ismingiz bor, lekin ismimning yoniga ismingiz aslo qo'yilmaydi.

Songul Unsal

Insonlarni hech tushuna olmadim. Nega ularni sevgan bir qalbgaga qoniqmaydilar-da, jirkanch yuraklarga oshiqadilar. Ketmayman, deb kirgan hayotimdan chiqayotganingizda ichingiz hech ham titramaydimi? Mayli deb qilingan harakatlardan keyin nima sababdan harakat qilgan insoningizni ortda tashlab ketasiz? Hamma narsadan ham ko'ra qilgan mehnatingiz bor. Inson mehnatlarining hurmati uchun ham sabr qiladi, intiladi. Inson harakatlari-ning hurmati uchun ham yarim yo'lda qoldirmaydi.

Xavotir olmang, borligim sizni bezovta qilmaydi. Bu yuragimning sanchiqlarini eshitmaysiz. Er-talabgacha mijja qoqmay, o'zimni otashga bera-be-ra hech narsani tushuntirishga harakat qilmayman. Qarang, men sodir bo'lganlarning barchasini qabul qildim. **Vijdoningiz tinch bo'lsin. Agar haliyam mavjud bo'lsa.**

Siz oramizga suqqan o'sha uzoqlik, o'zingizga bo'lgan eng katta xatoyingiz edi. Chunki sizdek sevilishni hamma orzu qildirdi. Hatto men ham o'zimni bu qadar sevmas ekanman, yuragimda siz uchun bog'lar yaratib keldim, biroq siz ko'rmasdan ketdingiz.

Tabriklayman!

Bu safar qadringiz qolmadi. Ne umid bilan ekan orzularim bugun so'lib qoldilar.

Siz uchun ko'rman.

Siz uchun karman endi.

Xavotir olmang, sizga nisbatan nafratim yo'q, bo'lmaydi ham. Bu sevgini bu darajada oddiy-lashtirmadim.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Endi siz bir kitobning tanilmagan xayoliy qahramonisiz. Ismingiz ham tilga olinmaydi, bilinmaysiz ham. Sahifa-sahifa yozdim sizni, hozir birma-bir o'chirilyapsiz. Bu biroz azoblantiradi-yu, mayli, har bir intiho biroz jon azoblaydi.

Bir inson bir xil yarani necha marotaba olishi mumkin? Necha marotaba bir ayol bir erkakka takror yengilishi mumkin?

Bu safar birinchisidek jonim azoblanmadi. Bila-man, bu ayriliq tanishdek tuyuldi. Ustiga-ustak siz bu safar qolish uchun kelmabsiz. Ammo eng yomoni nima ekanligini bilasizmi? Siz mendan keyin borgan har bir bekatingizda meni nomim yoziladi.

Boshida oson bo'ladi. His qilmaysiz ham. Ammo bir tongda birdan sakrab uyg'onasiz. Qonli ter ichida qolganingizda bir girdobning ichida meni unutganingizni anglab yetasiz.

Mayli dedim.

Siz ranjitdingiz, men uzur so'radim. Mayli dedim, u baxtli bo'lsa yetar qolgani nima bo'lsa bo'laversin. Lekin bunday bo'lishi ham to'g'ri emas. Bu davr oldingi davr emas ekan. Men mana shu yerda xato qilyapman. O'zimni tushuntirishga harakat qilib, o'z jumllarimni orasida necha marotaba yo'qolib qolganimni hatto men ham unutib qo'ydim, lekin sizning menda nechta yara qoldirganingizni unutmadim.

Mayli. Shunday bo'lsa-da, joningiz sog' bo'lsin.

Shuncha qalb siniqlarini hovuchlarimda qoldirdingiz-ku, sizning joningiz sog' bo'lsin.

Songul Unsal

Bir ayol bir xil yarani necha marotaba olishga kuchi yetsa, men aynan o'sha yarani qayta-qayta olishda davom etdim.

Yaralanish muammo emas. Muammo har safar yarani yangilash uchun topib, uni tuzatish uchun qayta topa olmaslikda.

Aynan mana shuning uchun endi siz umuman sevilmaydiz.

Sizga eng ko'p unutilish yarashadi.

Qonagan yaramga
tuz bosaman, lekin
endi sizdan malham so‘ramayman.

Barcha yo‘llarning
oxiri sizga olib borsa,
ortga qaytaman-u,
siz tomon bir qadam ham
tashlamayman.

MUSAFFO KECHA

Qalbimning bir chetiga yashirgan har bir tuyg'uyimni tunning yarmida qalbimdan chiqarib qaytadan sevdim. Qaysi yara bu qadar yaxshi parvarishlanishi, qaysi yara bu qadar sevilishi mumkin?

Bu daftarni yopdim deganlarimni ochib, qayta-qayta o'qidim.

Amin bo'lmaslik.

Amin bo'lolmaslik.

Hamma narsa aynan mana shu yerda boshlanadi. Bu qadar qadrlagan inson nima sababdan meni bu darajada qadrsiz his qildirdi.

Bu sevgiga bir onda bitib ketadigan darajada osonlikcha erishilmadi.

Ko'nik deyapsiz. Lablaringiz orasidan chiqayotgan bu arzon tasalli jumllalariga endi mening toqatim qolmadi. Ha bilaman yaxshi insonman va siz haqlisiz, hali yaxshi joylarga yetib boraman.

Lekin qanday? Eng avval buni qanday qabul qilay?

Sevgining bu qadar oddiy bo'lgan davrida meni sevibsiz. Sevayotgandek ko'rinibsiz.

Boshidan boshlaysan deyapsiz. Men yarim yo'lda qolib aqldan ozar ekanman, siz esa boshqa bir yo'lni kechar ekansiz, qanday qilib boshidan boshlayman?

Aqlim bovar qilmaydigan shuncha narsa bor ekan, yangi bir yo'lga qanday chiqar ekanman, bilmayman.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Ora-sirada aqldan oza yozdim. Hammaga sizni ta'riflab, sizga esa o'zingizni tushuntirolmadim. Balki kelar deb oylarcha, yillarcha har kuni bir xil narsani o'ylash osonmi? Qarang, sizni la'natlamayapman, lekin boshlagan har bir yo'lingiz sizning yakuningiz bo'lsin. Endigina zafar qozonayotganingizda baxtingizni qo'lingizdan ketkazdingiz.

Bir yarani qanday parvarishlash kerak bo'lsa, shunday yaxshi parvarish qildim. Tuzalmasin dedim. Tuzalmoqchi bo'lganida, tirnog'imni unga botirib yanada ko'proq qonatdim.

Tuzalmasin, tuzalmasinki, sizni yana bir bor kechirmay.

Siz kelgan kun, "O'zingga qara senda tiralgan yaralar hali bitmadi. Yangi bir yaraga joy yo'q", deya olay.

Men sizni qaytib kelishingizni xohlamayman. Necha kunlardan beri faqatgina birgina javob kutdim. Nega bunday bo'ldi? Hech sevmadingizmi? Hech suymagandek tashlab ketishingizning bir sababi bormidi? Sizning yuragingizdagi shafqatni qoraytirgan nima edi? Shuncha mehnatimning havoga uchib ketganiga xafa bo'ldim xolos.

Hamma narsaning yolg'on ekanligiga ko'nikishga harakat qilish bilan oylar o'tsa ham tabassumingiz chin ko'ngildan ekanligi yolg'on bo'lolmaydi, dedim o'z-o'zimga.

Men faqatgina aqlga sig'adigan mantiqli bir sabab keltirishingizni istagandim.

Shuncha fidokorlikning oxiri qanday qilib noshukurlik bilan tugashi mumkin?

Naqadar sindirib
parchalasangiz ham,
sizni tabassum
bilan eslayman...

MENI SOG'INING

01.00
Dekabr

Mayli, ketishni xohlasangiz, butun charchoqlarimni o'zingiz bilan olib keting, lekin iltimos meni sog'ining.

Jimgina sevishlarimni, chorasiz kutishlarimni sog'ining. Bir binoning eng tepasidan shaharni tomosha qilayotib, **uzoqlarga tikilib qoling. Shunda uzoqlarda ekanligimni tushunib yetasiz.**

Sizga shunchalar yaqinligimda boshqa shaharlarga ko'chib ketibsiz. Ko'ngil xotirjamligini boshqa savdolardan qidiribsiz. Allaqachon hamma narsangizni yig'ib-terib bo'libsiz. **Ketmasingizdan oldin boradigan joyingizni tayyorlab qo'yibsiz.**

Xafa bo'lishingizni xohlamayman, lekin sizda ham faqatgina men davolay oladigan yaralar bo'lsin. Aslo mendan minnatdor bo'lmang. Bari-bir, "U bo'lsaydi, yaralarimni davolardi", deyishingizni butun yuragim bilan xohlayapman.

Bu o'yinda siz g'alaba qozongandek ko'rinishingiz mumkin, lekin meni yo'qotdingiz. Meni yo'qotishning evaziga nimani qozondingiz, bilmayman,

lekin men o'zligimni yo'qotdim. Endi hayotimda faqat men borman. Boshqa yaralarni davolay olmayman. Qanotlarimni ilgichga ilib qo'yib bir chetda o'tiribman.

O'zimga ham parvo qilmayapman. Sizning ketishingiz muammo emas, men o'zligimdan ketdim. Hozir qaytib kelsangiz ham aqlimdagi tartibsiz o'y-fikrlar saranjomlanmaydi.

Sizga yetolmagan nimam bo'lsa, o'sha jabhalar-da siz ham yetmay qoling. Shunda borligimning yo'qligini anglaysiz.

Sizdan keyin hech kimni sevolmasligim qayg'usi meni tublarga cho'ktirmoqda. Bundan keyin sizga qaytmayman. Bu past zamonning va bu shijoatsiz insonlarning yolg'onlariga to'qnashish hayotning menga bo'lgan eng go'zal o'yinidir.

O'zimni qo'lga ololaman deb o'ylagan joydan parchalanyapman. Yarim kechada bir jarlikning chetida raqsga tushmoqdaman go'yo. Men yiqilgan bo'shliqdan sassiz ovoz chiqmaslik uchun intilyapman.

Men bitdim deganingizda, meni sog'ining. Yo'qotgangelaringizga, qo'lga kiritganlaringizga yig'lang. Qayg'uni kechaga botirib, qahvangizni azoblarga to'ldirib iching. Meni sog'inganingizda qo'lingizdan hech narsa kelmasin. Menga aslo qaytib kelmang.

Juda ko'p narsa xohlamayapman.

Meni sindirgan joyingizdan sining.

Siz pisandga olmagan narsalarga bir kun muhtoj bo'lasiz, degan umiddaman...

02.38 Seshanba

Yana o'sha og'riqni ichimga solib ketdingiz.
Ichimdagi cho'g'lardan olov paydo qildingiz-u,
lekin ichida yana yolg'iz meni yoqdingiz.

MENSIZ YAXSHIMISIZ ?

Yo'qligingiz bazo'r uxlagan uyqumdan tunning yarmida uyg'otgani uchun yaxshi ekanligimga ishonchim komil emas. Bu hayot meni sizziz yashashga mahkum qilyapti. Buning uchun ham o'zingizni aslo kechirmang.

Bu safar chuqur bir og'riqdan sekin-sekin kichrayib boryapman. Badanimda ko'pgina sababsiz paydo bo'lgan beparvo tuyg'ular mavjud.

Unutyapmanmi, haqiqatan ham ko'nikyapmanmi, ishoning men ham bilmayman, lekin sizziz boshlagan kunlarimdan zavqlanyapman. Chunki birdaniga qalbinga kirishingizni bilaman. Badani otashga otilayotgan bir gunohkordek qayerga qochishimni bilolmay qolaman yana. Ba'zan bo'larbo'lmas insonlardan madad kutaman.

Bilaman siz yo'q edingiz. Kelmasingizdan oldin ketib bo'lgandingiz.

Haqiqatan buni menga ravo ko'rdingizmi?

Ketishingiz ichimdagi sog'inch tuyg'usining chegaralarini buzganiga ancha bo'ldi. Sog'inishga o'rganib qoldimmi yoki ortiq sog'inmayapmanmi, bilmayman?

Bizni 'yolg'iz deb o'yladilar

Sekin-asta noma'lum joyga sudrallyapman. Yoki aqldan ozishning unutilish nuqtasidaman.

Siz bilan bo'lishgan yagona narsamning nafas olish ekanligini bilish ham menga yetardi, lekin hozir nafas olishni unutmogdaman.

Hamma hamyonida rasm olib yursa, men sizning ilk oq soch tolangizni olib yuribman. Xuddi mening yonimda qarimasligingizni bilgandek ko'z qorachig'imdek avaylab olib qo'ydim, siz esa sochlarimning to'kilishiga sabab bo'ldingiz.

Menimcha siz endi keting.

**Qayg'ularim sizga sovg'a bo'lsin. Kun kelib bari-
bir qayg'ular ichida qolasiz. Sizga kerak bo'ladi.**

Bir kun kelib tugashini bilardim. Bilib turib qabul qilolmasdim. **Xuddi inkor qilsam ozroq ran-
jiydigandek, kichik ma'sum qarshiliklarim bor
edi.**



QALBIM SOVIYAPTI

Asta-sekin yoz bitib, avgust o'z o'rnini sentabrga bo'shatar ekan, daraxtlardan yaproqlar to'kilyapti. Siz ham aynan mana shunday ketgandingiz. Sekin-sekin o'rningizni ko'z yoshlarga, keyin iztiroblarga bo'shatdingiz.

Tabassumingiz yana bir marotaba ko'zlarimga teginsin, keyin ketsangiz ketavering.

Men atrofingizni chulg'ab olgan tark etish tuyg'usiga qarshi chiqolmayman. Qanday bo'lsa ham siz bir yo'lini topib ketasiz baribir.

Qarang, yana keldim eshigingizga. Tilgan yaralaringizni davolang demayapman, lekin hech bo'lmasa bu jarohatlar qanday tuzaladi, deb sizdan madad so'rayapman. Bilasiz, ilk marotaba bu qadar jonim azoblandi.

Mayli, yaralarimni davolamang, lekin qanday tuzatishni o'rgatib keting. Bu yo'ldan qanday qilib qaytish mumkin? Qanday qaytdingiz? Qanday qilib yangi yo'ldan boshladingiz, tushuntiring. Ayting men ham bilay.

Bir qalbni vayrona qilib, qanday kulishingizni va bu sizga nimalarni his qildirganini ayting men-ga, iltimos.

Mayli sevmang, ammo qanday unutish mumkin, buni o'rgatib keting.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

*Ortiq bu mavsumning boshqa
bir bahoriga ehtiyojim yo'q.*

Men endi hech kimning tongda chiqadigan quyoshi
bo'lishni xohlamayman. Chunki men quyosh bo'lsam,
qorong'ulik neligini bilmay qoldingiz.

Boshqa hech kim uchun harakat qilmayman.
Ko'rdingizmi buning ham sababchisi sizensiz.
Chunki barcha urinishlarning zoye ketganini ko'rdim.
Qalbingizga sig'madim.

Sig'olmaganimdan ichimdagi qayg'u to'lib-toshdi.
Men endi sevilishni xohlamayman, chunki insonlar
faqatgina sen ularni sevganing uchun sevar ekan.

Bu qanday tartib, qanday bir kelishuv?

Endi bog'imga gullar ekmayman.

Chunki siz uchun o'stirgan gullarimni
boshqa biriga berayotganingizni ko'rdim.

BOSHIDAN OXIRIGACHA YANGLISHIMSIZ

Ulkan yolg'on bo'lgan bir tushning katta parchasisiz. Insonlar sevilganini his qilganlarida ularga moslashishimizni kutishadi. Har xil yolg'onlarga ko'z yumishimizni istaydilar.

Kechirasiz, lekin sevgi unday tuyg'u emas! Sevgi azoblarga chidash bo'lishi mumkin, lekin yolg'onlarga emas.

Sevgini xiyonatlarga yashirib, yana siz haqdek bizni yengishga harakat qilmang. Ketishingiz chiroyli bo'lsinki, sizdan keyin keladiganlarga eshiklar yopilmasin. Ketishingiz ortidan qilingan nolalar sizning Jahannamingiz bo'ladi hali. Sevgan bir qalbning sinig'idan qo'rqing. Chunki siz kutmagan paytda umidingizni kesib ketadi. **Aynan baxtli ekanligingizni his qilgan joyingizda o'zingizni baxtsizlik halqasining ichida topasiz.**

Mening ko'nglim xotirjam, chunki chiroyli sevdim. Sabr qilish kerak bo'lsa, sabr toshlarini parchaladim. Harakat qilish kerak bo'lsa, tikanli yo'llardan yalang oyoqda yugurdim. Faqat shu yergacha ekan. Inson sevilganini his qildirgan kishi tarafidan, yarim yo'lda qolganidan keyin, ayrilqni qabul qilishi qiyin bo'ladi. Shu sababli xatoni o'zimdan qidirishda davom etdim. Keyin fahmla-

Songul Unsal

dim, siz meni juda xafa qilibsiz. Holbuki, men eng buyuk xatoni o'zimga qilibman. Ko'z yoshlarimga qonlar aralashibdi. **Hozir qaytsangiz ham sizga beradigan muhabbatim zaharlidir. O'sha soflikdan uzoqlashganimga ancha bo'ldi.**

Katta bir qalb jarohatidan boshqa hech narsa emassiz. Bundan buyon meni ovora qilmang, kimdan huzur topsangiz, o'sha yerga boring. Men sizga olib boruvchi barcha yo'llarni tamg'aladim. **Sizga bo'lgan mehr-shafqat tuyg'ularim shunchalar mustahkam ediki, xafaman desangiz, siz uchun kulmayman ham.**

Insonlar sevgiga ochko'zlikni aralashtirganlaridan buyon muhabbat ma'sumiyatini yo'qotdi.

Endi bu shaharga qish kelmaydi. Bu yerda hamma qayerlargadir qochyapti. Kimdir sevgidan bosar-tusarini bilolmay qolgan, kimdir esa sevgiga o'ch. Bu mamlakat qora rangga bo'yalibdi.



YARIM YO'lda QOLGANLARGA

Qarang, bu siz o'ylagandek emas. Sizni yarim yo'lda qoldirib ketgan insonlar, o'sha yo'lda biroz nafas rostlab, keyin yanada chiroyli bir shaklda o'sha yo'lda davom etadilar. Siz yangi yo'lga kirganingizda, o'sha insonga qayta erisha olmay-siz. Chunki orangizga qo'yilgan to'siqlar sizning yakuningiz bo'ladi.

Bir insonni yarim yo'lda qoldirgan bo'lsangiz, bilingki keyin boshlagan har bir yo'lingiz to'siqlarga to'la bo'ladi. Endigina to'siqni oshib o'tdim deganingizda yo'l tugaydi.

Siz sindirgan barcha qalblarning hisobi o'sha qalblar baxtdan sarmastligida sizdan so'raladi. Dunyoning qonuni shunday.

Men vaqtga tashlab qo'ygan barcha insonlar vaqti bilan unutiladi. Men qaddimni tik tutib yurganimda ularning ozor chekayotganini ko'raman. Vaqt intiqomimizni shunday chiroyli oladi.

Sizning ko'nglingiz doimo xotirjam bo'lsin. Bilaman, bir kishi uchun hammaga teskari o'girildingiz, ammo unutmang, hali ham siz suyana oladigan juda yaxshi insonlar bor.

Bir subhda, aynan siz umidingizni uzganingizda quyosh siz uchun chiqadi. Sensiz yasholmayman degan insonlar qanday sizensiz yashayotgan bo'lsa, siz ham ularsiz yashay olasiz.

Songul Unsal

Hayotda hech bir yaxshilik javobsiz qolmaydi. Balki boshida sizni xafa qiladi, lekin keyin xursand qiladi.

Hayot aynan mana shu chiziqdan boshlanadi.

Sabr qilishni o'rganasiz. Siz o'rganib qolgan insonning yo'qligiga ham ko'nikasiz. O'tmaydigandek tuyulgan nimaiki bo'lsa, hammasi o'tib ketadi.

Xatolar bizni biz qiladi. Jarohatingiz qonab ketsa ham, endi hech narsa oldingidek ozor berolmaydi. Yana osonlikcha umid qilasiz, umid qilmaganingiz uchun xafa ham bo'lmaysiz. Eng yaxshisi ham shu. Hayot sizni bir marotaba ranjitadi, keyin xafa bo'lmaysiz, hech narsaga hayron qolmaysiz. Oldinlari hamma ni oyoqqa turgazganlaringiz uchun bir muddatdan keyin ahamiyat ham bermay qo'yasiz.

Shu hayotda sizga qaytmaslik uchun bahonalar qidirayotgan insonlar bo'lsa, ortidan aslo bormang, yo'qsa qadringizni yo'qotasiz. Ketishni xohlaganga eshikni siz ochib beringki, orqasidan qulflab olishga ham ulguring.

JAROHATLI TABASSUMIMIZ

Har bir kun o'tgani sayin sizni kechirish qiyinlashib bormoqda.

Ochdanoch uxlaganim uchun, yig'laganim uchun, tun bo'lishini kutib barcha o'y-fikrlardan qutulish va hammasi tush bo'lishini orzu qilganim uchun, barchasi uchun sizni aslo kechirmayman.

Xuddi bo'lgan voqealarning sababchisi mendek, meni o'zingizga yolvorishga majbur qilganingizni unutmayman. Siz duch keladigan har nohaqlikda meni eslaysiz. Aniq bilaman, o'zingizni insonlarga tanishtirayotganingizda o'zingizni yangidan kashf qilasiz. Kechalari nima bo'ldiki, men bunday vaziyatga tushib qoldim, deya bedor qolasiz.

Songul Unsal

Haqiqatan, hech ichingiz titramadimi? Hatto ichingizda ham u bularga loyiq emasdi demadingizmi?

Boshqa shaharlarga ko'chib o'tdim, boshqa insonlar bilan tanishdim. Sizda esa bir qahva-ning xotirasi ham qolmabdi. Rostan ham qanday qilib sizning yuragingizni sevdim?

Sizni unutish muammo emas. Inson uni tashlab ketganni shundoq ham unutadi, lekin duch kelgan nohaqlik uchun eng ko'p o'zidan jahli chiqadi. Uni tushunmaganlarini keyin anglab yetadi. Biz ko'rishni xohlamagan narsalarimizning ko'zimizdan yosh bo'lib oqishini keyin fahmlaymiz.

Lekin hech kimdan panoj kutmadim. Boshqa yuraklardan tasalli topadigan darajada pastkashlikka bormadi yuragim.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Yuragim bir kuldonga aylandi.

Bir tamaki tutunini siz deya ichimga tortdim.

Har o'chirganimda,

iz, yara, og'riq qoldi.

Bir o'ylab ko'ring-a, sizning hidingiz ham

xuddi shunday zararli.

Shunday azob,

Shunday iz qoldiradigan...

SIZGA YOZIB, TUSHUNTIRA OLMADIM

Jumlalarim tugab, qo'llarim yozishdan to'xtamagunicha sizga yozishda davom etaman. Sizga yozolmagan hamma narsamni bir qog'ozga yoki daftarga tushirishni istayman. Kassada navbatda turgan odamlar singari sevgi uchun ayriqliq chiptasini allaqachon sotib oldim.

Tirbandlik orasida yo'qolib boryapman. Yarim tunda menga butunlay notanish bo'lgan yo'llarda sayr qilgim kelyapti. Yuzimga shamol tegsa ko'zlarimni yumyapman. Orzular og'ushida suzyapman. Men yechim topa olmayotgan hamma narsa o'sha yerda, aqlimdagi so'roqli savollar bilan kurashar ekanman, o'zim bilan janjallashib yana o'zimga yengilyapman. **Siz uchun qayg'urrganimga o'zimdand jahlim chiqyapti.**

Bu bir ko'nikish, hayot men bilan talashib, tortishib, ko'nikishni o'rgatyapti. Qiyin bo'lyapti. O'y-fikrlarimning badanimga yuk bo'layotgan

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

o'sha nuqtasidaman. Ichimdagilarni ayta olmaslik, tushuntira olmaslik, ichimda qo'porilayotgan bo'ronlarni tilga ololmaslik, ichimni yondiryapti. Shifokorga borib dardingizni aytasiz, lekin bu unday emas. Ayta olmaganlarim ich-etimni yeyapti. Men eng ko'p o'zimga zarar yetkazibman. Men eng ko'p o'zimni fido qilibman. Bo'lar-bo'lmas esgan shamollarga o'zimni taslim qilibman. Yolg'on tildan haqiqatlarni qidirish bilan kunlarim o'tib ketibdi. Sabablarni natijalarga bog'lolmagan har kunim uchun la'natlar aytishda davom etdim.

Bilaman, o'tib ketadi. Ha, balki bugun emas, lekin bir kun kelib o'tadi. Har tunning tongi ham bordir. Faqatgina ba'zi bir kechalar sovuq va uzun bo'lib o'tadi. Balki men buni sizga tushuntirib berolmasman, lekin kuni kelib sizning ham boshingizga tushadi. **Shunda anglab yetasiz, lekin hammasi befoyda bo'ladi, hatto meni ilk marotaba tushunib yetasiz. Barchasi esa o'zgargan va mening qalbim sizdan boshqa bir shaharda orom olayotgan bo'ladi.**

ULG'AYYAPMIZ

Rozi bo'ldim.

Hamma narsa o'z o'rniga qaytyapti.

Insonlarning ketishlariga endi parvo ham qilmayapman. Eshitib anglayapman. Balki hamma narsani bilib turibman, lekin hech birini his qilmayapman. Umidsizliklarim meni xafa qilolmayapti. Har bir azobga ko'nikish tajribasidan charchaganlikdan dalolat emasmi bu?

Ranjibsiz.

Xafa bo'libsiz.

Ular uchun yelib-yugurib horibsiz, biroq o'zingiz qayta oyoqqa turibsiz.

Orttirgan jarohatlaringizga o'zingiz malham qo'yibsiz.

Hayot sizni bir nuqtaga yetkazibdi. U nuqtadan keyingisi esa avvalgi hayotning yangi bir nusxasi-

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

dek. Ha, buni oldin ham boshimdan o'tkazgandim deysiz. Hatto takroran ranjiganingizda birinchi bo'lib hayron qolasiz, lekin avvalgidek qiyinchilik bilan boshdan o'tkazmaysiz.

Barcha tuyg'ular menga tanish. Birma-bir uzoq ta'riflay olaman, lekin endi ularni his qilmayapman.

Yakunimizga vazminlik bilan rozi bo'lish mening qutqarilishim bo'ldi. **Chunki har bir yakun uchun xatoni o'zimdanda qidirib, aziyat chekishdan juda charchadim.**

Ha, aybdor yolg'iz men emasman. Taqdirimda shu bo'lishi kerak ekan, deb o'zimni o'zim ovutyapman.

SHIFOBAXSH TABASSUM

Oh, ikki ko'zimdan oqqan ko'z yoshlarim sababchisi... Siz menda qoldirgan jarohatlaringizni bilganingizda edi, o'zingiz qaytib kelib davolar edingiz. Lekin bu safar sizdan umid qilmayman. Tuyg'ularim dengiz suvlaridek kirlanib ketdi. Men sizni nafas olmasdan ta'riflaydigan so'zlarimga xulosa yasayapman va sizni eslatadigan qo'shiqlarni xotiramdan birma-bir o'chiryapman.

Oh, jonimga jon qo'shganim, jonimga qanday azob berganingizni bilganingizda edi, o'zingizni yonib turgan olovga otardingiz.

Biz bu shaharning eng chiroyli tashlab ketilgan insonlarimiz.

Lekin chiroyli sevdik, unga so'z ojiz.

Sizni, siz meni uyqusiz qoldirgan kunlarda eslayman. Sizga jannatlarni ko'rsatgan insonga

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Jahannamni beribsiz-u, men buni sizdan keyin ko'ribman. Inson oshiqligida emas, unutish va qabul qilish davrida ko'p haqiqatlarni anglay boshlaydi. Hamma narsa bir yolg'on ichiga yashiringanini munosabatlar uzil-kesil hal bo'lganidan so'ng anglay boshlaysiz va o'zingizga sig'may qolasiz.

Ey ikki ko'zimning quvonchi, qarang, iz qoldirmasdan ayrildik.

Shunday bo'lsa-da, joningiz sog' bo'lsin. Men sizning yaralaringizni davoladim, biroq siz jaro-hatimni tilib ketdingiz. Joningiz sog' bo'lsin.

**Ayting sevgilim.
Barcha yomonliklarni bu go'zal qalbingizga
qanday joyladingiz?**



O'zga yurtlarga bosh olib ketadigan darajada qanday dardingiz bor?

Charchabsiz.

Intiqlik bilan kutgan onlaringizni yer bilan yakson qilib, joniga qasd qilishlariga yo'l qo'ydingiz.

Shunchalar sevar ekansiz, qanday qilib sizning nozik qalbingizga ozor yetkazishdi.

Chiroyli sochlaringizni yulib tashlabsiz.

Og'riqlarga to'la, sevgi bilan yashayotgan qalbingiz uni xafa qilib qo'yishdan, ranjitib qo'yishdan qo'rqib qanday qilib sukut saqladi.

Bir shaharning butun dardini yelkangizga yuklabsiz-u, lekin hech kim sizdan minnatdor bo'lmabdi. Doim g'amginligingiz ortibdi-yu, ammo hech kimga ozor bermabsiz, xavotirlanmang yuragi go'zal inson, sizning bahoringiz juda chiroyli qaytadi. Siz bu davrdan o'tib, sizni tushunadiganlarning yoniga borasiz. Hatto, ular siz tomonga keladilar. Bog'ingizga ekkan barcha gullaringiz bu safar unib chiqadi.

QAYTSANGIZ HAM TASHLAB KETGANINGIZNI UNUTMAYMAN

Sizdan kutgan tilaklarim evaziga menga barcha yomonliklarni ravo ko'rdingiz, aynan mana shuning uchun ham sizga la'natlar bo'lsin. Qarang, xuddi men kabi xafa bo'ling demayman, chunki bu chidab bo'lmas bir qalb og'rig'idir. Ham sevib, ham nafratga to'lib ketgan vaqtda insonning tuyg'ulari ham yonib kul bo'lar ekan. Na aqlingga, na yuragingga quloq sola olasan. Bor kuchingiz bilan yugurayotganingizda birdaniga to'xtab qolishdek bu. Nafasingiz nafasingizga tiqiladi. Ketishingiz kerak, lekin avvalgi shijoatni topa olmaysiz. Inson holdan toyganini to'xtab qolganida anglab his qilar ekan. Necha marotaba mayli dedim, qo'y yo'limda

Songul Unsal

davom etay dedim. Qalbim eshiklaridan kirmang, ortiq u yerda hech narsa o'z o'rnida emas. Hammasini o'z o'rniga joylashtiraman deb yuragimni talon-taroj qildingiz-u, loaqal uzr so'ramadingiz ham. Ozor bermaguncha qo'ymadingiz. Bu hayotda mening butun tanamni azob-uqubatga giriftor qilib ketishingiz, kechirish mumkin bo'lmagan ish bo'ldi. Ammo men sizni avf etdim. Chunki bu g'azab menga sizdan ko'ra ko'proq zarar berayotgandi. Necha kun o'tdi, qanday o'tdi, uyqusiz tunlarim, zulmatdagi tonglarim, orqasi va oldi kesilgan, nafasimni siqqan tamaki qoldiqlari...

“Sen kuchli bir insonsan, buni ham yengib o'tishingni bilaman”, deb ketishingiz butun kuchimni olib qo'ydi. Qo'rqqosiz, balki o'zingizga buni loyiq ko'rmaganingiz uchun ham ketdingiz. Barcha harakatlarni ma'nosiz qilgan ketishingiz sababli shu onda qaytishingizning hech qanday ma'nosi yo'q.

Yukim og'ir, vaqt esa o'tyapti, qish kelib sovuq qotyapman, lekin siz haliyam yo'qsiz.

ALLOH SOF VIJDON ATO ETSIN

Ertami-kechmi Alloh “yaxshi xulqli” insonlarning aslida odobsiz ekanliklarini koʻrsatib qoʻyar ekan. Muhim deb bilgan insonlarimizning aslida naqadar keraksiz ekanliklarini bildirib qoʻyar ekan.

Boʻlmadi dedingiz oxirida, shuning uchun koʻz yosh toʻkdimmi axir. Oʻy-fikrlar ichra mijja qoqmasligim shundanmi... Shunday bir vaqt keldiki, siz oʻzingiz mendan kechib uni ham unutganingizni payqamay qolasiz va ataylab unutishga harakat qilishingizga hojat ham qolmaydi. Uni yoddan chiqarish uchun koʻp mehnat qilishingizga arzimaydi ham.

Birgina nojoʻya harakati ila dunyolardek qadrli boʻlgan inson chang zarrasidek qadrsiz boʻlib qoladi. Demak, birgina u meni koʻklarga koʻtarib, hurmatimni yuksaltirgan ekan deysiz.

Qalbingiz biror kimdan sovusa, keyin avvalgidan ham yaxshi boʻlib qaytib kelsa ham, uni qabul qilolmas ekansiz. Bir vaqtlar hatto ismini eshitgan-

Songul Unsal

da xursand bo'lgan bo'lsangiz, endi uni ko'rganda yo'lingizni o'zgartirishni xohlaysiz. Siz kuchli deb o'ylagan insonning yakuni ham aynan mana shunday mustahkam nafratga aylanadi.

Unutmang, qo'ldan boy berdim deb hisoblagan insonlaringiz keyinroq qutuldim deb tilga olinadigan insonlar safiga qo'shilib ketadi. Shunda atrofdagi insonlarning bunga haqli ekanliklarini tan olish og'riqli bo'lsa-da, buni tan olishga majbur bo'lasiz. Ba'zan biz ko'rolmaymiz va o'z hayotimizdan tashqariga chiqib begonalardek chetdan qarab turolmaymiz.

Hayotda bu insonlarning so'zlariga emas qil-mishlariga qarab ish tutish lozim. Hamma sevaman deya jar soladi, lekin ulardan bir qismigina bu sevgisini haqiqatga aylantira oladi xolos.

Mening ko'nglim xotirjam, chunki hech kimning qalbida chuqur iz qoldirmadim. Balki ular mendan keyin hayotlarini hech nima bo'lmagandek davom ettirarlar, lekin men ozor cheka-cheka hech narsa bo'lmagandek davom etishni o'zimga loyiq ko'rmadim.

SOBIQ SEVGI

Umidimni bir kapalakning orzusiga sig'dirdim. Xonamdagi radiodan shunday retro qo'shiq taralyapti.

Xafa bo'ldim.

Hammadan, hamma narsadan biroz ranjidim.

Meni yig'latib, so'ng tasalli ro'molchasi uzatganingiz uchun ham yuragimda sizga nisbatan mehr uyg'ondi.

Sizdan ham xafa bo'ldim. Bir marotaba bo'lsa ham ko'nglimni olmay boshqa qalblarga oshiqdingiz. Bir yurakning faryodini eshita olmaydigan darajada qanday befarq bo'ldingiz? Menga oq yo'l deyasiz, lekin barcha yo'llarni zanjirband qilganingizdan so'ng bu so'zlar befoyda. Sizga olib boradigan yo'llarni yoddan bilib ham yoningizga bora olmaganimdan keyin, yo'llarim oq bo'lmay qo'ya qolsin. Tabassumlaringizni esa abadiy cheksizlikka kuzatyapman. Ha, so'nggi kunlarda biroz kayfiyatim yo'q. Bir qafasning ichiga berkinib olgandek-

Songul Unsal

man. Eshikni ochsalar birozdan so'ng aylanib qaytib keladigandekman. Shu darajada chorasizman. Shu darajada o'zimdan charchagan va to'yib ketganman.

To'satdan, xabarsiz keladigan bahorni kutyaman.

Qushlari qirilib ketgan bu shaharda, haliyam qush ovozi eshitib uyg'onishdek betakror umidlarim bor. Zero, bu shovqinlar meni aqldan ozdirishi hech gap emas.

Tilga ololmaganlarimning barini ma'yusligim ortiga yashirdim.

TAN OLAY YAXSHIGINA RANJIDIM

Qo'lingizdan kelganini qilganingizdan keyin ham siz ozor cheksangiz, iltimos aybni o'zingizdan qidirmang. Ba'zan qiyin bo'lsa ham oradan vaqt o'tishi lozim. O'zingizni yaxshi his qildingiz degani, aslo ozor chekmaysiz degani emas. Aksincha eng ko'p yaxshilar aziyat chekadilar.

Ba'zi tajribalar qiyinchilik bilan erishiladi.

Vaqt o'tyapti. Bir xil bo'lib qolmaymiz. Hammani oyoqqa turishini kutishingiz o'zingizga bo'lgan eng katta yomonlikdir. Turib-turib bir xil xatolarini va bir xil to'siqlarni o'ylamang. Ammo hayotga yuzingizni ters o'girmang. Atrofingizda sizni sevgan, mavjudligingiz uchun xursand bo'lgan qancha inson bor. Yomon shaxslarni deb, yaxshi insonlar bilan orangizga masofa qo'ymang, chunki bu boshingizdan o'tkazayotgan qiyin kunlarni yanada uzaytiradi.

Songul Unsal

Bajara olmaydigan va'dalar bermang. Oxirgacha borolmaydigan insonlar bilan bir yo'lni boshlamang. **Yarim yo'lda qoldirgan insonlarning chekkan ohlari bilan yangi bir yo'lga kirolmaysiz, buni unutmang.** Xuddi mana shunday, qarshingizdagi inson sizni qanchalik xafa qilsa qilsin, siz qaytadan oyoqqa turishni o'rganing va yanada kuchliroq bo'ling, vaqtning qasos olishiga qo'yib bering.

Yakuni bo'lmagan insonlar uchun o'zingizni qiynamang.

Sizga aytar gapim shuki, siz ortda qoldirgan insonlar uchun kelajagingizdan yuz o'girmang.

“Men siz uchun jon kuydirar ekanman,
boshqa birov men uchun jonini fido
qilayotganini ko'rganingizda qalbim naqadar
azob chekkanini anglab yetasiz.
Shuning o'zi sizga kifoya.
Ortiq qasos olishingga ham arzimaysiz...”

SIZGA UNUTILISH YARASHADI

Hozir qaytsangiz, yana meni jarohatlab ketasiz. Yana bir dasta qayg'uni qo'limga tutqazib, "Sen juda yaxshisan", deb yaxshi ekanligimdan pushaymon qildirasiz. Butun qalbimning chiroqlarini o'chirib qo'yib, "Nega xomushsan?" deysiz. Hozir qaytsangiz, qalbimni yana o'sha joyidan yulib olasiz. Qanday azob tortishimni yoddan bila turib yana azoblaysiz, yana tashlab ketasiz. Zotan, biz doimo ketganlaridan keyin sevgini izladik va aslo hushyor tortmadik. Bir ayrilqni quchog'imga yetim boladek tashlab ketganingizni, ortimdan kulganingizni aslo unutmayman. Balki sizni unutarman, lekin buni aslo unutmayman. Ichimda yashiringan nafratim bunga hech ham yo'l qo'ymaydi.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Xavotirlanma, ey jonim, men yaxshiman. Bu mamlakatning chiroqlari yo'qdir balki, lekin uning quyoshi bor. Kechalari orzularimni shamchiroq bilan yorityapman. Siz esa bulutlarning ustida sayr qilib yuravering. **Men u bulutlardan sakraganimga ancha bo'ldi, mayli uning chiroyli manzarasi sizniki bo'la qolsin.**

Agar quyosh bo'lsam ham endi sizga nur sochmayman. Siz mening moviy orzularimni qora rangga bo'yadingiz. **Endi sizga unutilish yara-shadi.** Mensizlik sizga eng katta jazo bo'lsin. Sizga o'zingiz yaratgan zulmatda go'zal bir baxt tilayman...

Xursandchilik bilan o'tkazgan barcha lah-zalaringizni ko'zda yosh bilan eslaganingizda ayriliqning eshik qoqqanini anglaysiz.

Sevganlarning ketganini va chiroyli boshlan-gan narsalar tugab, o'rnini quruq cho'lga top-shirganini aynan shunda tushunib yetasiz.

Ketayotib avtobusning namlangan oynasi-ni artdim. So'nggi marotaba iflos shaharning manzarasini tomosha qildim.

YAXSHI NIYAT BA'ZAN NOSHUKURLIKNI KELTIRIB CHIQRADI

Insonni eng ko'p ranjitadigan narsa – bu yaxshi niyatdir. Aslida bu tuyg'u biz zaif bo'lgan insonlarga nisbatan aytiladi. **Gullarni yoqtirmasangiz ham u uchun derazangiz oldida gullar o'stirasiz.**

Ammo qarabsizki, boriga qanoat qilmaslik insonlarning qon-qoniga singib ketibdi. Doimo ko'rsatgan yaxshi amalingizni bir marotaba ko'rsatmaganingizda qilgan mehnatingizning hech qanday ma'nosi qolmaydi. Ya'ni inson bolasi unga qilingan yaxshiliklarni emas, qilinmagan narsalarni ko'radi.

Bir marotaba inkor qilsangiz, o'ylab ham o'tirmay tartibsizlik yaratishdan hech iymanmaydilar. Holbuki, ular sizga har doim yo'q dedilar. Buni bila turib xafa bo'lmang. **Barcha qilgan mehnatlaringiz puchga chiqqanida hamma uchun harakat qilib bo'lmasligini anglab yetasiz.**

Ba'zan yolg'iz qoling. Yolg'iz qolish sizni o'zingizni kashf qilishingizga yordam beradi.

Songul Unsal

Nima xohlayapman, nima meni baxtli qiladi, sevgi aslida kimdan qidiriladi?

O'zingizni xonaga qulflamang. Chiqib sayr qiling, tabassum qiling. Bularni qilish uchun boshqa birovga ehtiyojingiz yo'qligini bilishingiz kifoya.

Albatta, har bir yakun og'riqli o'tadi. Bir tarafingiz qorong'ulikda bo'lishi aniq, lekin bir muddatdan keyin yiqilgan joyingizdan turishni ham biling. Yiqilgan joyidan o'zi turgan insonlarga qaytadan yiqilmasligi kerakligini shu tariqa o'rganadilar.

O'SHA YERDA YIQILGAN PAYTIMIZDAYOQ

ATROFIMIZDAGI INSONLAR

QUM ZARRALARIDEK

UCHIB KETADI.

QADRINGIZ QOLMADI

Kunlar o'tmayapti, lekin kundankunga inson hammasi tugaganini qabul qila boshlar ekan. Sevgini eng ko'p his qildirgan inson bilan sevgisizlikni his qildirgan insonning bir inson ekanligini inkor qilganimdan so'ng men ham idrok qila boshladim. Bir begonadek gaplashganingizda qadrim qolmaganini sezdim. Inson aqli qilingan yaxshiliklardan diqqatini uzolmaydi. Shu tarzda insonlarni eslaydi va naqadar yomonlik ko'rsa-da, bularni qabul qilolmaydi.

Qarang, meni unutishingiz yuragimda sanchiq bo'lmadi, ammo hech sevmaganday tashlab ketishingiz meni vayron qildi. Ko'zlaringiz kular edi, biroq siz qaysi paytda menga begona bo'ldingiz?

Bir inson faqat shunchalik pastkashlashishi mumkin.

Lekin baribir o'zingiz bilasiz.

Sizga nisbatan g'azabim ham, nafratim ham yo'q. Qalbim to'la xafagarchiligim bor xolos.

Men haliyam qaytib kelib, barchasini tushuntirib berib, yuragimni sokinlashtirasiz, deb kutyapman. O'sha zahoti butun xafagarchiliklarimni sizga to'kib sochar edim.

Songul Unsal

Ayriliq to'foni – hech bir lug'atdan joy ololmaydigan darajada hissiyotsiz. Xuddi bizdan butun tuyg'ularimizni yulib olib, uning o'rniga biz bilmagan iztiroblarni bichib qo'yishgandek. Tili-ni tushunmayapmiz. Qayg'ularning motami esa tugamayapti.

Tog'ri-da, o'lganning orqasidan uch kundan keyin ko'z yosh to'kilmaydi? Aza tutishning ham ortiqchasi joiz emas. Xo'sh, agar shunday bo'lsa meni bu gunohdan qutqar, Robbim. Chunki men yetarlicha xafa bo'ldim. Quloqlarim bevafolar-niing e'tiborsiz harakatlariga kar bo'lsin. Tashlab ketganlarning ortida qoldirgan xarobaning shov-qiniga burkansin. Uning ismini takrorlagan kali-malarimning og'riqli hayqiriqlariga ko'z yoshlarim mahkum bo'lib qolmasin. So'nsin endi umidlar, iz-tiroblar ko'nglimizga yashirinmasin.

Men endi quvonch bilan qo'shiq aytishni is-tamayman. Qayg'u quvgan qushlar qaytib kelsin va butun qayg'ularni quvsin. Iltimos, Allohim...



MUHABBATNING CHIPTASI BITTA

Endi ko'nikdim deysiz, bir do'stga, bir sevgiga
Eyoki qanday desam har qanday bir tuyg'u-
ning go'zalligiga, keyin bir onda shaharning orqa
ko'chalarida issiz yo'qolgan bir soyaga aylanadi his-
larimiz.

Mayin esgan shamol bilan barcha xotiralar
uchib ketadi. Ortimizda esa pushaymonlik...

Ketish lahzalarida alvido deyolmasdan nafa-
simiz tiqiladi. Hayotda bizni yolg'iz deb o'yladilar.

Hayotimizga yangi kelgan inson kelajakda yan-
gi azoblar qoldiradi, deb qo'rqib qoldik. Har go'zal-
lik tugashga mahkum deb o'ylayapmiz. Hayotda
bizni yolg'iz deb o'yladilar. Endi yashay olsangiz
yashang!

Insonlar har doim yolg'izliklari o'tib ketgunicha
bizni yonlarida olib qoladilar. Bu yolg'izlikning
qalinlashgan terisi ham shundandir. Sevgining
ma'nosiga tushunmagan insonlardan sevgi qidir-
dik.

Songul Unsal

Yaralar tuzalmasdanoq yangilari bilan unutilib ketyapti. Ular, balki bitib ketmaslar.

Endigina yaxshiliklarga ko'nikkanimizda, birdaniga qora bulutlar kelib, bizni chalg'itib yubordi. Insonlarning beqarorligi muvozanatimizni buzdi. Na qaytishlari va na ketishlari sira ham aniq bo'lmadi. Doim arosatda qolib ketdilar. Shu sababli butun tuyg'ularini o'rtada tashlab ketdilar.

Inson boshidan o'tkazganlarini hech his qilmandek ortda qoldirib ketolmas ekan. Badanigingizga olov yoqilgandek qayerga tashlanishni bilolmay qolasiz. Butun hayqiriqlar, ko'z yoshlari, hammasi so'nggi imkoniyat aslida.

Aslida inson ayriliqqa o'zini mana shunday ko'niktiradi.

Noma'lumlik qiynadi meni. Sevmayman deganida, ishoning jonim bu qadar azoblanmasdi.

ORZULARDAN YASALGAN PANJARAM

Ko'nglimizdagi qolipga solingan muzlar erir ekan, birinchi bo'lib qaysi tuyg'u qolipidan ko'char ekan-a?

Qaysi biri birinchi erib, bizni o'zimizdan uzoqlarga olib ketar ekan?

Holbuki, mening yuragim bir ummondek edi. Ko'nglimda son-sanoqsiz sevgi so'zlari jo'sh urib turardi.

Hozir esa o'zimni bir qayiqda ummonning qoq o'rtasida tashlab ketilgandek his qilyapman. Bor kuchim bilan eshkaklarni eshsam ham oxiriga yetolmayapman. Bir onda umidlanib hayot rulinini tezroq aylantiryapman, lekin nima qilsam ham befoyda. Oddiy insonlardek yashashni uddalay olmayapman!

Yomg'irlar boshlay qolsin. Ustimizga yaxshiliklar yog'sin. Yog'sin-da, barcha muzlarimizni eritsin. Selga aylansin, butun keraksiz narsalarni olislarga oqizib ketsin. Bizdan uzoqqa. Juda uzoqlarga...

Hatto ko'zlarimdan oqqan yoshlar muz tomchilariga aylandi, bu hayot o'yinida. So'ngan otashim

Songul Unsal

isbotdirki, bizni bu hayotda doim yolg'iz deb o'yladilar.

Bu uyqudan tezroq uyg'ongim kelyapti. Hamma yoqni qaytadan moviy rangga bo'yagim kelyapti. Bu dardlar menga dars bo'lsin deyapman. Endi boshqa birov uchun orzularimdan voz kechmayman. Insonlarni yuqoriga chiqarib o'sha yerda qoldirishni xohlayapman. Naqadar uzoq bo'lsalar, shu qadar yaxshi. Qo'yavering, ular o'zlarini cho'qqidaman deb, xomxayol bo'lsinlar.

Bir yomg'ir yog'sin va tuproqning hidi baravar yoyilsin bu shaharga.

Ba'zan kechalari baland bir joyga chiqib oyoqlarimni osiltirib o'tirgim keladi. Ko'zlarimni yumib, butun umidsizliklarimni yerga otishni istayapman.

Koshki azoblarni ortda qoldirish bu qadar oson bo'lsa.



BU SHAHAR KETMAYMAN DEYDIGANLARNING AYRILIQLARI BILAN TO'LA

Necha kunlardan beri, qalbim chegaralaridan o'tib kelgan behisob tuyg'ularingiz og'irligi ostida ezildim. Boshida bu tuyg'uga nom berishga qiynaldim. Keyin yuragimga kirib kelgan bu tuyg'uning sevgi ekanligini tushunib yetayotganimda birdaniga tark etildim. Nega bunday bo'ladi? Kelganlardan har biri nega yuragimizda yangi azoblarni meros qilib qoldirishadi? Biladigan bo'lsa aytsin, nega?

Meni sizni tashlab ketishimdan xavotirlanib, o'zingiz bir oktabr kechasida tark etdingiz. O'sha yili qish barvaqt kelgandi. Bir onda soch tolalarim oq rangga burkangandi.

Nega tashlab ketilishdan qo'rqqan insonlar odatda tark etganlar bo'ladilar? Inson sevilish uchun shuncha harakat qilganidan keyin nega sevilganiga ishonch hosil qilib, so'nggida tashlab ketiladi?

Aytadigan ko'p gap bor, lekin u bularni qanday qilib tushunadi? Agar tushunganida edi, qalbimda bu qadar kelishmovchiliklarni qoldirarmidi?

Songul Unsal

Siz xayol dunyoyimning siniq bir parchasisiz.
Endi bu tuyg'ularni bir kitobning orasiga yashirish kerak.

Kun o'tib azobli o'y-fikrlar insonni xarob qiladi, jumladan, meni ham. Men esa siz menga qoldirgan so'roqli savollarga javob qidira-qidira o'zimni yeb bitirdim.

Bir insonga bu qadar nohaqlik qilinmaydi. Bularni qilayotganda hech vijdoningiz qiynalmadimi? Bir insonning yaralarini jarohatlab qo'yib boshqa bir inson ustidan qanday qilib kula oldingiz? Mening qanotlarimni sindirdingiz. Keyin ozodsan dedingiz.

Bir inson naqadar pastga tusha olsa, shu qadar o'zingizni yerga urdingiz.

Meni bu chuqurga siz uloqtirdingiz. Ketayotib ortga qayrilib ham qaramaganingizni o'lsam ham unutmayman.

Ketaman degandan qo'rqmang, aksincha, sevganimga ishonchim komil deb o'ylab, oxirida bir nimalarni to'g'rilashga harakat qilgan, doimo sevvishini aytib va aslo ketmaydigandek ko'ringan inson vaqti kelib hech achinmasdan tashlab ketadi.

Sevgingiz kibrga bulg'anibdi. Men esa sizni qalbimda juda ulug'labman, bo'shliqning ichidan chiqolmaganim ham shundandir balki.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

YAXSHILIKLAR ORZULARINGIZGA BEZAK BERSIN

Shubhalarimizning no'rin ekanligiga, shiyonatlarning yakuniga yetishiga, bir kun kimdir qarshimizga chiqib qo'rquvlarimizni ruhi va yuragi bilan aritishiga, bizni borimizcha sevishlariga ishontirishlarini xayol suring-a. Qanday yaxshi bo'lardi, tog'rimi? Ana o'shanda bizni yolg'iz deb bilishmasdi balki...

Ana o'sha kuni bizni yolg'izdek ko'rsatgan hamma narsa uchun shukur qilardik. Yaxshiyam ketishibdi, deb yolg'izligimizdan g'ururlanar edik. Yaxshiyam hayotimda hech kim yo'q edi, siz keldingiz derdik.

Hamma hayotdan bir ma'no qidirayotganida, qidirayotgan tuyg'ularimizni kutilmaganda kelgan o'sha insonning ko'nglida payqaymiz.

Yana ham chiroyli kulasiz. Insonlar sizdagi xursandchilikni payqaydilar. Yolg'izlik ruhingizdan o'chib ketar ekan, yurak urishlaringiz muhabbatni his qiladi.

Siz o'zingiz sezmagan holda boshqa birov uchun yashashni boshlaysiz. Balki yomon narsalar haqida qayg'urib, kelajakni o'ylab xavotirlanarsiz, lekin bu sevgi barcha yomon shubhalarni o'chirib tashlaydi. Siz orzu qilishdan voz kechmang.

Orzu dunyoyingizni gullar ochilishi tilagi bilan yanada go'zalroq qiladi.

SATRLARGA AYLANDIK


Qalamim qog'ozga tushgan mahal satrlarim xayoliy bir ovunishga aylanadi... Ovunmoq. Yozgan sari yozging keladi. So'zlar singan qalbimga tasalli berar ekan, xotiralarim satrlarga qiyinchilik bilan hijjalab to'kiladi. Bunga qaramasdan, qalbim voz kechishni bilmaydi, yozgan sari yozging kelaveradi.

Hammasi tugadi deganimda, umidlarim yana yasharishini bilaman. Hozircha umidlarimni bulutlarda qoldiryapman va barcha tuyg'ularimni biroz ortga suryapman.

Og'riqlarimni bartaraf qilmasdan boshqa bir qalblardan sevgi qidirmadim. Chunki yara malhami sifatida foydalanilishning qanday ozor berishini eng yaxshi men bilaman.

Orzu qilishdan to'xtamayman. Bilaman, qanchalik yaralansam ham shu jarohatlangan qalbimning bir burchagida har doim umid bo'ladi. Balki dardlarim ko'payib ketganda umidlarimni ham unutarman, lekin har doim ichimdagi kichik bir qizning sochlarini tarashda davom etaman.

Bir tongda quyosh, albatta, men uchun chiqadi deb har kuni quyoshning botishini kutyapman.



Meni yolg'iz deb o'ylashlariga
sabab bo'lgan hamma narsa uchun
insonlarning qalbiga birma-bir
gulchambar taqib chiqyapman.

BOLALARCHA SEVDIK

Bolaligimda uyqudan so'ng barcha xafagarchiligim o'tib ketardi...

Na singan o'yinchoqlarim, na o'yinbuzar g'irromchi o'rtoqlarim meni xafa qilisholmasdi. Hech narsa bo'lmagandek davr charx urib aylanardi... Hozir esa na uyqu kelyapti va na baxtsizlikka sho'ng'igan uyqumdan uyg'onganimda xafagarchiligim ariyapti... Shunchaki aylanishdan to'xtamagan davr butun jirkanchligi bilan davom etyapti... Uyg'onganda qayg'ularimning arib ketishini o'ylagan qalbim har safarda parchalanishda va qadrsiz orzularimning yaksonligida davom etyapti!

Oh, naqadar ko'p seni ranjitdim. O'zimga eng ko'p men zarar berdim. Bo'lar-bo'lmas insonlarni qalbimga kiritdim. Sevsam yaxshilanib ketishini o'ylagan narsalarimning bari yanada xunuklashdi. Endi insonlarga sevilishning o'zi yetmayapti.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Uyqularimda bolaligimdan qolgan tilaklarimni amalga oshiryapman. U yerda insonlar hali ham qadr-qimmat neligini bilishadi, oshiqlar baxtiyor va hech bir ko'chada xiyonat yo'q.

Bugun ham kuchli ko'rinaman deb kuchsiz yiqildim. Qara, dedim o'zimga, qara, qizim baxtsizsan dedim, buni qabul qil. **Qabul qil, endi bola emassan va bolalarday seva olmaysan.** Hayqirishlaring yetmaydi. Ketish kerak. Bolalarday xafa bo'lib olish kor qilmaydi, katta bir chinorning ildizlarini ham yulib olish kerakki, ma'noli bir yakun bo'lsin.

BU YO'L MENI CHARCHATADI

Kun kelib inson birdaniga charchab qoladi... Soʻzlari uzoq diyorlarga koʻchib ketgan, yurakdagi misralar unsiz qoladi... Kulrang satrlar siyohga belanar ekan, qaygʻuning kuchi bilan na qogʻoz va na eski xotiralar seni ahvolingni tushunadilar. Ey hayot, bizni yolgʻiz deb oʻyladilar...

Bir onda tartibga solingan narsalar tarqalib ketadi. Vaqt hamma narsaga davo deymiz, lekin shunday bir on keladiki, bir soniyada oʻtmish bilan aloqangizni uzasiz. Vaqti keldi deganlari shu boʻlsa kerak.

Mening dab-durustdan yiqilishlarim bor. Baxtiyorlikdan osmonlarga uchdim deb oʻylagan oʻsha vaqtlarimda qanday qilib yiqilganimni chorasizlarcha tomosha qildim.

Kechalari tizzalarimni quchib, ichimdan oʻtgan kechinmalarni birgina men bilaman.

Sizni tabriklayman, bu safar siz haqingizda oxirgi marotaba yozyapman. Shu oshib boʻlmas gʻururingizga salomlar boʻlsin. Sizga esa laʼnatlar boʻlsin. Naqadar chiroyli ketish edi bu. Inson sevilmaganini keyin tushunib yetarkan. Barcha urinishlaringiz befoyda boʻlganida qanchalik boʻsh bir xayolning ichiga tushib qolganingizni anglab yetasiz...

Kun kelib inson birdaniga charchaydi.

Umid bilan yurgan oʻsha yoʻllarning yoʻlaklariga oʻtirib shunchaki kutadi.

BALKI YANA SEVARMIZ

Hayotning iplari bu qadar ingichka ekanligini Holdindan bilolmadim... Temir arqon bilan bog'langan deb o'ylabman... Hozir esa ulg'aydim. Ulg'ayish eng yomon narsa ekan. Iplar uzilayotganda bo'ynimga bog'landi. Yutinishni xohlayman, lekin nafas ololmayapman. Iplar bo'ynimni siqqani sari butun iflosliklarning ustiga qayt qilgim kelib ketyapti. Qayt qilib yengil bo'lgim kelyapti. Kimdir shu iplarni uzsa... Robbim nolamni tingla.

Inson sevilishi uchun unga qo'l yetmaydigan bo'lishi kerak emish.

Sevilgan inson biroz yomon, biroz mensimagandek, hatto ma'sum ko'rinib ham yolg'onlar ham ayta olar ekan.

Insonlar uning uchun kurashadiganlarni emas, mensimaganlarni so'rab qidirar ekanlar.

Bu yo'llar sevgiga olib bormasligini bilaman.

Bir kun qaytadan tug'ilarman va balki bir qushning jilvasi ichimni isitayotganda ichimdagi yong'inlar ham so'nib qolar. Qaytadan sevarmiz balki. Kim bilsin, aslo amalga oshmaydi deganlarimiz ro'yobga chiqar.

Songul Unsal

Bu safar ip bilan emas, muhabbat zanjiri bilan bog'lanamiz.

Qaytadan qarshimga barcha go'zalliklar chiqadi, buni bilaman va endi bir tabassumimning o'rtasida qayg'ularimni eslamayman. Qayg'ularga yengilmayman.

Inson, uni tushuna

olishlari uchun

ba'zan sukut saqlashi

kerak ekan.



Bizni yolg'iz deb o'yladilar

TIK TURING, SEVGINGIZ SIZNI YIQITMAYDI

Insonlarning hayotida ba'zan to'ntarishlar ham bo'lib turadi.

Hech kutilmaganda, aslo umid qilmagan insonlar tomonidan. Eng noodatiy tarzda. Keyin esa yuragingizni ikkilanish qamrab oladi. Har tashrif buyurgan kishi yana o'sha joyingizdan, hech kutilmagan bir shaklda bizni ranjitadimi deya insonlarga qo'rqib yaqinlashasiz.

Bu hayotda har kim adashadi. Albatta, umr halqasida hamma narsa qoyilmaqom tarzda aylanmaydi. Lekin nima bo'lgan taqdirda ham siz tik turing. O'zingizga bo'lgan ishonchingiz yo'qolmagunicha yo'l sizni hamisha to'g'ri insonga yo'naltiradi. Aniqki, yo'nalishingizni tanlayotganingizda qayta-qayta ranjiysiz, necha marotaba ozor chekasiz, faqatgina siz taslim bo'lmang va unutmang bu hayotda hech narsangiz bo'lmasa ham o'z o'rningiz bo'lsin. Ha, bizni yolg'iz deb o'yladilar. Ha, zarbalar oldik. Lekin iltimos, o'z o'rnigizni yo'qotmay tik turing. **Chunki yuragi kuchli bo'lganning mavqeyi ham mustahkam bo'ladi. Shuning uchun insonlar orzularingizga va tuyg'ularingizga nisbatan naqadar ko'p oyoqdan chalsalar ham siz tik turishda davom eting. Tik turingki, haybatingizdan hamma navbatga tursin...**

G'URURINGIZNI HECH KIMNING OYOG'I OSTIGA TASHLAMANG

Hozir balki endi siz tark etildingiz, balki sizni noto'g'ri tushunishdi, siz o'zingizni oqlashga ulgurmasdan u kishi sizni tinglamadi. Ortiga ham qaramasdan barcha eshiklarni yuzingizga yopdi. Chiqib ketdi. Unutmang, sizni bir marotaba bo'lsa ham muhokama qilmasdan chiqib ketgan, yana xuddi shu ishni qiladi. Shu sababdan, sizdan ketgan qaytib kelishni xohlasa, **ASLO KECHIRMANG!**

Noshukur insonlarning eshigini siz ochib bering. Ketishlariga qo'yib bering.

Ketganlar uchun aslo o'zingizni ayblamang. Unutmang, qolishni xohlagan sizni kamchiliklaringiz bilan ham sevardi. Sinchiklab o'ylab go'zal qalbingizni charchatmang. U shunchaki ketishni xohladi, bori shu. Ha, balki joyi emasdi, balki vaqti ham emasdi, biroq u ketishni ma'qul ko'rdi.

Qo'yavering, ketsin. Qo'ying, yo'llaringizni qaytadan yana gullar bilan bezaysiz.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Ba'zi insonlar aslo ikkinchi imkoniyatga arzi-
maydilar.

Kechalari siz yig'ladingiz, u emas.


Tun-u kuningiz bir-biriga qorishganida u bosh-
qasiga ketdi.

Siz uning bir xabariga muhtojligingizda u bosh-
qa birovdan xabarlar kutdi. Siz ko'z yosh to'kayot-
ganingizda, u kuldi.

Hech tushunmasdan o'chirib tashlagan va ortiga
qayrilib ham qaramagan bir insonga sizni sevaman
degani uchun nega ikkinchi imkoniyat berishingiz
kerak?

Sevasizmi? Yana seving. Uzoqdan seving. Bu
safar eng kamida sizga ozor berolmaydi. Undan
biror javob qaytmasligini bilganingiz uchun hech
narsa bekorga ketmaydi.

**Siz hayotingizni tartibga solganingizdan ke-
yin, hech narsa bo'lmagandek qaytgan insonni
sizda yo'q deb hisoblang.**



TINCHLIK SIZNING SINOVINGIZDIR

Hayot ba'zan yomon kutilmagan sovg'alar qilib, kutilmagan hodisalar bilan qarama, qarshi qilib qo'yadi...

Ichki dunyoyimiz hazm qilolmay, ichimizga yutib hech kimga aytolmagan qancha xatolarni boshidan o'tkazdi. Kim ham bilardi... Kimdir xiyonatga uchradi, kimdir besabab tashlab ketildi. Boshingizga nima sababdan qanday qiyinchiliklar tushgan bo'lsa ham uni o'tmishda qoldiring. Chunki kelajak sari qat'iy odimlar bilan harakatlanayotganingizda boshingizga tushganlarga toqatingiz qolmaydi. Joningiz hech narsa qilishni xohlama-yapti. Kunning yarmini bekorga o'tkazyapsiz... Ruhiy zo'riqish sindromidasiz, lekin buni ham qabul qilolmay, tik turibman deb o'ylayabsiz... O'zingizga buni ravo ko'rmang! Iltimos, kuningizning bir soatini ajratib, o'zingizni qahva bilan siylang va sodir bo'lganlarning sarhisobini qiling. O'tmish o'tmishda qolsin... Siz yangidan yangi hodisalar uchun o'zingiz bilan dardlashing. Shu onda bu satrlarni o'qiyotgan go'zal inson, menga ishoning, hammasi o'tib ketadi. O'z nomi bilan o'tmish dey-miz. Hamma narsa o'tib ketadi, siz xohlang va harakat qilishni boshlang, shuning o'zi kifoya...

JIMGINA QABUL QILISH

Sizning yuragimni qoʻporgan qiyomatlarisizga parvo ham qilmay, jimgina ketishingizga rozi boʻldim. Jim boʻlib, ichimga yutib rozi boʻldim... Hiqildogʻimga tiqilgan soʻnggi luqmadek qayta-qayta yutindim, sizning nohaqliklaringizni.

Xarobaga aylangan katta bir shahardekman. Qachon kimdir yuragimga qoʻl uzatmoqchi boʻlsa, siz qazigan chuqurlarning ortidan oʻzingiz chiqib kelyapsiz. Chiqmang!

Sizdan odobli tarzda ketgim kelyapti. Uyqusiz kechalarimga ahamiyat bermasdan, bir nafasda yangidan yangi umidlar sari otlangim kelyapti. Bagʻrimga bosmoqchi boʻlgan har bir orzuning, tabassum qilishga urinishlarimning ortidan ham siz chiqyapsiz. Chiqmang!

Songul Unsal

Aytdim-ku, necha marotaba sizni unutmadi keldi. Necha marotaba unutishni istadim. Necha marotaba hayotimdan o'chirdim sizni. Sizga atab to'plagan sevgi so'zlarimning ustidan chizib tashladim. Shunda ham qachon boshqa bir eshik tomon qadam tashlasam ortidan siz chiqyapsiz. Chiqmang!

Men bu hikoyani siz bilan davom ettirmaslikka qaror qilganimga ko'p bo'ldi. Men sizga ochilgan barcha eshiklarimni yopdim. Siz ham endi vido-lashishni biling. Modomiki, hurmatsizlarcha sevgan bo'lsangiz, hurmatingizni ham olib keting. So'nggi marotaba qaytaryapman, boshqa qarshimga chiqmang.

Men sizni mag'lub etdim deb o'ylasam, aslida sizga yengilgan ekanman.



HAMMA UNI KETISHI BILAN ESLAYDI

Kamgap boʻlgan, lekin gap ochilganda toʻxtashni bilmaydigan qancha insonlarni uchratdim. Har birining oʻzgacha umidlari bor edi, yuragida asragisi kelmagan, yulib olishga harakat qilganda yanada ogʻritadigan azoblari bor edi.

Insonlarning xavotirini uzoq kuzatdim. Kutilmaganda insonlar haqidagi fikrlarim oʻzgardi.

Kimningdir dardi, kimningdir turmush oʻrtogʻi, kimningdir esa ichki muammosi boshidan oshib ketgandi.

Oʻylasam, yuragim shuncha insonning qaygʻu-hasratidan dunyo olamiga shoʻngʻib ketibdi.

Keyin bir qaragam dardimni unutib qoʻyibman. Oʻrnimdan turib: “Seniki dardmidi?” dedim oʻzimga.

Keyin nima boʻldi deysizmi? Naqadar meni yolgʻiz deb oʻylabdilar, deb boʻlgan voqealarni muhokama qilyotganimda, meni ranjitgan, xafa qilgan, tushunmagan hammani birma-bir unutilish jarligiga uloqtirdim.

Oʻz dardingiz bilan oʻralashib qolgan vaqtingizda ham, biroz muddatga boʻlsa ham atrofingizga oʻgirilib qarang. Siz nima demoqchiligimni tushundingiz.

TUYG'ULARIM BU DAVRGA OID EMAS

Bolaligimda bir o'yinchog'im bo'lardi. Hech qo'limdan qo'ymasdim. Dunyo yonib kulgaga aylansa ham e'tibor bermasdim, faqatgina o'sha o'yinchog'imga biror nima bo'lishini xohlamasdim. Uni shunchalar himoya qilar edimki, ko'z qorachig'imdek asrab, yuragimdan sevardim.

Koshki, hozir ham o'sha yoshda bo'lsam edi. Yana hech narsaga e'tibor bermaydigan qizaloq bo'lsam, yagona dardim o'sha o'yinchog'im bo'lsa.

Dunyo naqadar o'zgardi. Kun sayin insonlarga yangidan yangi, biz bilmagan azoblarni chektiryapti.

Qayerga boshimizni o'girib qaramaylik, hammayoq yara, jarohat .

Biz ulg'ayganimiz uchun azoblanyapmizmi yoki hayot juda ham beshafqatmi? Bilsangiz ayting...

Endi insonlar faqatgina o'z ehtiyojlari yuzasidan insonlarni sevadilar. Jim turish kerak paytda faqat-

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

gina o'zlarining foydalari uchun bo'lar-bo'lmas gaplarni aytyaptilar. Gapirishlari kerak bo'lgan joyda esa jim turibdilar. O'zlariga yaxshilik qildim deb o'ylab, aslida o'zlarini keraksiz odamlar orasiga uloqtirganlaridan ularning xabari ham yo'q.

Endi insonlar o'z haqiqatlarini tasdiqlagan insonlarni yonlarida olib qolyaptilar. Hammani ahmoqlardek muhokama qilib, o'zlarini muhokama qilishlariga chiday olmaydilar.

O'z iqbollari uchun boshqa birovning baxtsizligiga parvo ham qilmayaptilar. Holbuki, baxtning yo'li boshqa birovni baxtli qilish yo'lidan o'tadi. Insonlarning manmanligi ortaversa, ularning insoniyligi ham yo'qolib boraveradi.

Tuyg'ularim bu davrga oid emas. Men haliyam har bir so'zning ortidan ma'nolarni izlab yurimman. Insonlarning og'zidan chiqqan har bir so'zning qalbdan chiqqaniga ishonaman.

Balki shuning uchun ham **BIZNI YOLG'IZ DEBO YLADILAR.**

SIZ ULG'AYING DEYA

Siz bilib oling deya hayot sizni sinadi.
Shuncha urinish, shuncha qayg'uning hech biri bekorga ketmadi.

Oqqan ko'z yoshlar sel bo'lishi nima ekanligin biling deya...

Siz ko'ring deya...

Siz tushunib yetib, xato qilmang deya.

Nega haliyam umidingiz yo'q deb o'ylayapsiz?

Nega haliyam xafa bo'lishdan voz kechib, mamnun bo'lishni tanlamayapsiz?

Siz bilib oling deya, hayot sizni sinadi.

Shuncha urinish, shuncha qayg'uning hech biri bekorga ketmadi.

Chunki bilib oldingiz...

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Chunki o'rganyapsiz...

O'rganayotib umidingiz kuchlanadi, buni unutmang va tik turing. O'z o'rningizni yo'qotmang. Yelkalarangizni tushirmang, boshingizni egmang...

Oyoq tirasangiz hammasi yanada chiroyli bo'ladi. Bu hayotning yanada ichiga kirasiz hali, unutmang!

Boshingizni ko'taring, yangiroq bir tabassum bilan salom ayting va boshidan boshlang.

Sizni mahzun qilgan jamiki xotiralarni o'chirib tashlang...

BARCHA TUYG'ULAR O'ZGACHADIR

Baʼzan hayotning bitmas-tuganmas shosh-qaloqligi va yuragingizda oʻralashib yurgan sanoqsiz dilxiraliklardan naqadar charchagan ekanligingizni payqashga vaqtingiz ham boʻlmaydi. Chunki bajarishingiz kerak boʻlgan masʼuliyat va siz bajarishingiz kerak boʻlgan koʻp narsa bor-ki, toʻxtab bir nafas olaman desangiz, xuddi ipning bir uchi qochib ketadigandek va yana qaytadan hamma narsani birlashtirolmaydigandek tuyuladi. Shuncha boʻlib oʻtgan voqealar ichida kech tushib yotogʻingizga bosh qoʻyganingizda yotoq pastga choʻkib ketadiganday boʻladi-yu, lekin siz baribir miyangizdagi xotiralarni charxlovchi ertangi kun rejalari sababli charchogʻingizni his qilib ulgur-masingizdanoq uxlab qolasiz.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Buni o'zingizga ravo ko'rmang. O'zingizni muhim deb biling. O'zingizga vaqt ajrating. Ha, bilaman, yuqoriga tupursangiz mo'ylov, pastga tupursangiz soqolga tegadigan holatdasiz. Kerak bo'lsa, o'sha azoblarning og'ziga tupuring, lekin baribir o'zingizga qisqa tanaffuslar berib turing. Va'da berasizmi?

Bir derazangiz bo'lsin, jimjitlikni qo'msagan paytingizda o'sha yerda tanaffus qilib, choyingizni iching. Ichingizdagi xazinalarni hech kimga ayt-mang. Insonlar o'zlari tanazzulga yuz tutganla-rida qarshi tarafning ham yengilishini, yiqilishini xohlaydilar.

O'zingizga so'z bering, baxtli bo'lasiz.

“

Ha,

*hayot ba'zida pand beradi, lekin
inson baxt sari intilganida ba'zan qoqiladi,
shunday emasmi?*

TAN OLING, VOZ KECHDIK

Bilasizmi, baʼzan yaqin doʻstlarimiz bilan kichik savol-javob oʻyinini oʻynaymiz va javob berish navbati sizga keladi.

Savol: “Bu hayotda yoʻqotgan eng katta narsangiz nima?”

Titroqli bir ovoz bilan, “U” deysiz, aynan mana shu soʻzni aytish qiyin kechadi. Faqat siz buni xohlamaysiz. Bir muddatdan soʻng “U” deb javob bermaysiz va tortgan azoblaringizni eslamaysiz ham. Lekin unga bogʻliq xotiralar bir chetda qoladi va yana kimdir kelib xuddi shu dardlarni yangilamoqchi boʻlsa, unga eslatasiz...

Masalan, kunduzning eng gavjum paytida birdaniga nafasingiz siqilyaptimi? Yoki yarim tunda oʻrningizdan sapchib turgan paytlaringiz boʻldimi? Tez-tez eslab unutilmagan, qoʻrqib oʻzingizdan yashirgan nimadur bor-a? Masalan, hech nimani payqamagan paytlaringiz.

Masalan, hamma narsadan birdaniga hafsalangiz pir boʻlgan paytlaringiz.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Doimiy jimjitlikda, hech kim bilan gaplashmay yurgan vaqtingizda, kimdir biror nima so'raganida yoki telefoningiz jiringlaganda ovozingizning sekin eshivilishidan ajablanasizmi? Ichingizning qayerlarigadir, masalan, eng chuqur deb taxmin qilgan joylariga yashirinishni xohlagan paytlaringiz bo'lganmi? Masalan, hech kimni tanishni xohlamagan paytingiz. Butun tilaklaringiz, butun borlig'ingiz bir chetda tursin, muntazam qilayotgan ishlaringizdan ham kechishni xohlagan paytlaringiz bo'ladimi? Ichingizdagi bir ovoz o'zining bezovta holati bilan bunday bo'lmayotgandir deyapti, shundaymi?

Chunki tez-tez aytgan bu gaplarim, hatto ulardan ham ko'pi tez-tez takrorlanib turibdi... Tan oling!

Aynan mana shu, boshingizdan o'tkazgan bu tuyg'u to'fonlari mutlaq chorasizlikka mahkum bo'lishingizdir.

Buni o'zingizga ravo ko'rmang.

Ba'zi erkaklar chiroyli kuladi...

Ayniqsa, ba'zilari shu qadar chiroyli kuladilarki, ularga qarasangiz, xuddi siz o'zingiz kulgandek bo'lasiz. Tabassumlarida o'zingizni ko'rasiz. Xuddi tasavvuringizda u umrbod kuladigandek... Oh, mening go'zal do'stim, har bir chiroyli kulganlar yuzimizni bir umr kuldira olganda edi, dunyo naqadar go'zal bo'lar edi, to'g'rimi?

Chiroyli kulishi ham ma'qul, lekin aslida sizning yoningizda yig'lay olyaptimi, dardi bo'lganda siz bilan dardlashyaptimi yo'qmi, shunga ahamiyat bering. Ana o'shanda sevishlar chiroyli bo'ladi. Chunki hayot ikki kishidan iborat bo'lsa chiroyli, uni ulasha olsangiz undanda go'zal...

Koshki, har bir chiroyli gaplarni aytgan odam o'sha gaplarning orqasidagi ma'nolarini ham bilsaydi. **Sizning og'zingizdan chiqadigan o'sha so'zlar mening orzularimni bezardi balki. Ketishingizni tan ololmayman, balki shundandir.**

“Og'izda” siz ketmasdingiz. Qarang, shunchaki “og'izda”.

Shunchaki aytilgan so'zlarning azobi o'tib ketmaydi ba'zan.

Kim bilsin, balki bir kun ortingizdan yaxshiyam ketibdi derman. Ohlarimning javobini olaman. Xavotirlanmang, men baxtli bo'lsam-u, siz baxtsiz bo'lsangiz men xafa bo'laman.

Tabassumi go'zal bo'lganning dardi ham chiroyli bo'lar ekan.

BIZNI YOLG'IZ DEB O'YLADILAR

Nega yolg'iz qoldik deysizmi, chunki kutdik. Kutishimizga loyiq bo'lmagan insonlarni hayotimizga olib kirdik. Yuragimiz kutilmagan narsalar bilan qarshilashganida esa yolg'izligimizni yanada kuchli his qildik.

Yolg'izlik, jasur insonlarning ishidir. Sevgisi, do'stligi uchun mardonavor mehnat qilganidan keyin ham qo'li bo'sh qolsa, qilingan shuncha fidokorlikni "Sadaqam bo'lsin", deb qarshilab, yo'lda davom etganlarning qahramonligidir yolg'izlik.

Men hech qachon tuyg'ularimdan qochib qo'rqmadim. Yolg'izlikdan qo'rqib qarshimdagi olomonga aralashmadim va ularning olomonini tarqatib yuborib hech kimni o'zimga muhtoj qilmadim.

Qarang, siz shunday qilyapsiz. Birinchi sevganlaringizning hayotiga kirib, keyin ularning hayotini o'zgartirishni xohlayapsiz. Kiyinishiga, yurish-turishiga, do'stlariga aralashishingiz yetmaganiday, yegan-ichganiga ham burningizni suqyapsiz. Hech kimni o'z holicha qabul qilmayapsiz.

Songul Unsal

Qarshingizdagi insonni boshdan oyoqqacha o'zgartirganingizdan so'ngra ketayapsiz. Yig'latib, uning kulishini o'zgartirib qo'yyapsiz. Sevgingiz ilk qiyinchilikdayoq uzuladigan darajada ipak bilan bog'langan bo'lsa, iltimos, kelajakdan so'zlamang. Agar kurashishga kuchingiz yetmasa, yoningizdagi insonni kurashning o'rtasida qoldirib, o'zingiz qochib qolmang. Biz sof sevamiz, shuning uchun sizni kurashishdan qochib ketdiniz, deb o'ylamayapmiz ham. Bu kelishmovchilik men sababli yuzaga keldi, deb o'zimizni ayblab, o'sha urushdan sog'-salomat chiqqanimizdan keyin esa sizni qidirypmiz.

Sevish emas, kimnidir juda sevish bizni eng ko'p yolg'iz his qildiradi. So'ngida esa bizni yolg'iz deb o'ylashadi va ranjigan ham biz bo'lamiz. Aytiladigan gap qolmaydi. Ammo buni qarangki, atrofingizda gapiruvchi hech kim qolmaganda, insonning aytishni xohlagan qancha gaplari bo'ladi, shunday emasmi?

**Biz sevishni yaxshi ko'ramiz,
siz masalani noto'g'ri tushunibsiz.**

TUYG'ULAR ZIYON BO'LIBDI

Naqadar past munosabatda bo'lsangiz, qarshingizdagi inson ham shu qadar past munosabatda bo'ladi. Zaxirasida xiyonat bo'lgan insonlarning qalbidan sevgi qidirilishi kerak emas ekan. Buni qalbingiz xiyonatga belanganida anglab yetarkansiz. Insonlar oddiy sevgilar ortidan quva-quva aslo nafas rostlay olmas ekanlar. Notanish yo'llarga kirib, yarim yo'lda tashlab ketilishning ohlari bilan bir kechada to'satdan qarshilashganlarida, hech kimning qilmishi boshqasiga kor qilmasligini tushunib yetishar ekan.

Bu shunday bir dunyo. Ma'nosini yo'qotgan o'nlab tuyg'u ichida bo'g'ilib qolasiz. Na sevgan sevganidan, na sevilgan sevilganidan ishonchi komil emas. Balki hammasi shunchaki ko'nikib qolishdan iboratdir. Hamma hayajon ichra ovora. Ustiga-ustak yonlaridagi turmush o'rtoqlariga e'ti-

bor bermasdan bir xiyonatning ichida jon berayotganlaridan xabarlari yo'q, ha yo'q!

So'ngra nega men baxtsizman deya shikoyat qila boshlaydilar.

Insonlar nimani xohlashlarini hanuz bilmaydilar. Sevishni istaydilar. Sevgandan keyin sevilishni, murakkab bir jangdan keyin ularga berilgan muhabbatning javobini oladilar, so'ngra tark etadilar. Qarang, dunyo shunday bir Jahannam holatga aylandi.

Sevgining ma'nosi naqadar shikastlanibdi.

Qalbinga tosh bosyapman. Ismingiz yozilgan jumlalarning ustidan qoralab qo'yayapman. Siz sevgi degan kalimaning qotili bo'libsiz, ey yaxshi odam. Sizni to'xtatib, sevishda davom etishim uchun arziydigan joyingiz ham qolmabdi. Hammadek qarayapsiz menga. Endi tamaki chekishingiz ham oddiy bo'lib qolibdi.

**Sizni sevish tuyg'usi zarar ekanligini,
sizni unutganimda payqadim.**

“

*Tabassumingiz o'rtasida
yig'lashni boshlaganingizda,
sizga notanish tuyulgan
xafagarchilikning neligini
anglaysiz.*

*Bu pushaymonlik sizga yetadi.
Ortig'iga arzimaysiz.*

”

QALBIMNING FESTIVALI

Siz meni necha marotaba yarim yo'lda qoldirsangiz ham, men o'sha yo'lning yo'laklariga o'tirib sizni kutdim. Qaytmasligingizni tushunib yetganimdan keyin bazo'r orqaga qaytdim. Sudrala-sudrala ortga qaytdim. Qaytayotganda butun xotiralarimiz yuragimga tig'dek botsa ham, ichimni qonata-qonata o'sha yo'lni tugatdim. Eng beshafqati nima edi bilasizmi? Endi yangi yo'lga kiraman deganimda hayotimda paydo bo'ldingiz. Zulmatimni ikki qo'lingiz bilan parchalab hayotimga kirdingiz.


Sevamizda, qo'limizdan tutib Jahannamga yetaklasa ham ortidan boramiz.

Mana shunday bo'lyapti ham.


She'rlarimni suyasiz desam, siz yana qayg'ularimni oshirdingiz. Keting, keting men bu yo'ldan qanday qilib qaytishni bilaman.

Ayni xatolarga qoqilib yiqilmayman xavotir olmang.

Endi sizga turtilsam ham yolg'izlik girdobiga tushmayman.



*“Qarshingizdagi insonni
yo‘qotgandan so‘ng
qadriga yetmaydigan darajada
ko‘r bo‘lmang”*



Songul Unsal



Sadoqat sevgining o'lchamidir.

**Ham sevaman deb, ham boshqa yuraklarda
tasalli qidirayotgan bo'lsangiz,
iltimos, siz sevmang.**

**Birinchi, yuragingizga sadoqatni o'rgating,
keyin sevaverasiz. Biz kutamiz,
shoshilmang.**

**Kelib boshimdan o'ping,
orzularim hislaringizga qorishsin.
Balki shunda sevishni o'rganarsiz.**



HAQQIMIZ XUDOGA OMONAT

Yo‘q unday bo‘lmaydi.

Siz pisandga olmay ketgan insonlar, siz qaytganingizda yo‘llaringizga gullar sochmadi. Sochmaydi ham.

Siz eng katta xatoni aynan mana shu yerda qilyapsiz. Nima bo‘lsa ham meni sevadi-ku, deb bir insonning hayotini qiyomatga aylantirib boshqa ko‘ngillarga esa gullar tortiq qilyapsiz.

Bir tongda o‘sha gullar bilan birga qalbingiz ham quriydi.

Bir insonning sof tuyg‘ularini o‘g‘irlab, tinchlikni, baxtni sizning eshigingizni qoqishini kutmang.

Sizning haqqingizga duo qilgan qalblarni ranjitib, kun kelib nega baxtsizman, ajabo demang.

Ko‘nglingiz tusaganida kirib chiqadigan o‘sha qalblardan chiqib ketganingizdan keyin bir kun eshiklar siz uchun yopiladi.

O‘sha paytda haqiqatan ham sevilganingizni anglaysiz.

Qalbi parchalangan insonlar xavotir olishmasin. Agar shunday bo‘lsa, Allohning bir bilgani bordir deyishni ham biling.

Songul Unsal

Ishoning, bizni bizdan ham ko'proq birgina Alloh o'ylaydi.

Bir tongda shukrlaringizni samoga sochasiz. Bor yuragingiz, bor sevgingizga yarasha sevilasiz. Qalb toza bo'lsa yo'llaringiz doim gullarga bezanadi. Tikanlarni tashlab yuboring, sizni ranjitganlarga sadaqangiz bo'lsin.

Nima bo'lsa ham eng ko'p qachon sevilding deb so'rasalar, uning yodiga siz tushasiz. Sevayotib xuddi sizdek sevishga harakat qilib, duch kelgan insonlardan sizning unga qilgan fidokorligingizni qidiradi. Siz gullarga burkangan yo'llardan yurayotganingizda uning umri doimiy qiyoslashlar bilan o'tadi.

Qo'yib bering, hayotingizda qolishni xohlama-gan hamma ketsin. Hatto o'zingiz ularni kuzatib qo'ying. "Ketaman" tahdidlarini eshitganingiz zahoti eshikni ularga o'zingiz ochib bering.

Ketishni xohlaganlarni siz kuzatib qo'ying-ki, bundan oldin siz qanday nafas olsangiz bundan keyin ular shunday nafas olishni bilib qo'ysinlar. O'zlarini kislorodman deb o'ylamasinlar.



**Ketishingizdan jahlim chiqmayapti,
albatta, ketishingiz mumkin.**

**Meni hech sevmagandek
xunuk tarzda ketishingizdan
jahlim chiqyapti.**

**Xavotir olmang, o'zimdanda ham
juda jahlim chiqyapti.**

**Shuncha qalb ozorlariga qaramay
haliyam sizni kutyapman.**

**Xuddi hech xafa bo'lmagandek,
xuddi hech yarim yo'lda qolmagandek
o'sha yo'lning o'rtasiga tiz cho'kib sizni
kutyapman. Shuncha qilgan
shafqatsizligingizga qaramay haliyam
tabassumingiz ortidan**

bir marhamat kutyapman.

**Sizdan jahlim chiqmayapti,
o'zimdanda jahlim chiqyapti.**

**Nima bo'lsa ham sevgini sizga
yarashtirganim uchun ming afsuslar
bo'lsin deyapman.**

Meni o'zimdanda jahlim chiqyapti.



MALIKALAR HAM YIG'LAYDI

Siz hayotning sizga tayyorlagan qiyinchiliklarining alamini mendan oldingiz. Holbuki, men sizning azoblaringizga malham bo'ladigan yagona inson edim.

Siz menda hech so'nmaydigan og'riqlar qoldirdingiz.

Keling, endi unuting.

Keling, endi siz hayotga umid bilan boqing.

Go'zal bo'lgan narsalar bilan vidolashdim. Sizdan, sevgingizdan, siz menda qoldirgan har bir izdan voz kechdim.

Qalbim boshqalarni tanlaganingizni unutmaydi.

Sizga nisbatan g'azabim ham bo'lmaydi.

Balki sizga yetarli bo'lolmadim, lekin qo'limdan kelganini qilganim uchun ko'nglim xotirjam. Siz esa o'zingizni haqliman deb bilavering. Mendan tortib olganlaringiz sekin-sekin yemirilib tugaydi.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Ana o'shanda naqadar oddiy inson ekanligingizni, sizga qanchalar chiroyli munosabatda bo'lganimni kimlardir sizni ranjitganida anglab yetasiz.

Bu soatdan keyin mutlaqo mustaqilman. Bugun men sizga bo'lgan asirligimning o'z mustaqilligini e'lon qildim.

Balki kun kelib ko'z yoshlarimning tuzi yaralarimga tegar, lekin og'rita-og'rita baribir meni tuza-tadi.

Siz o'zingizni qochishga tayyorlabsiz. Sevmolik albatta yuragingizga og'ir keladi.

Bu kechanning pardasi yopilsin. Jamiki ertaklar tugasin, ustiga-ustak baxtsiz yakun bilan.



**Shahzoda yetti dona
kichik ayollar ichida uxlar ekan,
malika uni o'pmasdan ketdi.**

YARA BOG'LAMI

Mening ham ortda qoldirgan yomon kunlarim bo'ldi. Lekin qachon yiqilgudek bo'lsam, hatto yerga yotib olgudek og'ir paytlarim ham, aynan o'sha onlarda o'zimni tamoman o'zgartira oldim. Shamollardek tarqab ketgan barcha tuyg'ularimni bir qirmizi tongda daraxtlarning ostiga ko'mib qo'yayapman.

Men uchun muhim bo'lgan, usiz o'lib qolaman degan narsalarimga o'lib qolmadim. Hatto usiz yanada chiroyli yashadim.

Manfaatlari tugaganda ketgan do'stlaringa omadlar bo'lsin.

Qarang, eng tahlikali inson turlarini mana shular tashkil qiladi. Faqatgina o'zlarining ishlarini ko'rib, siz bajargan harakatlarni ketayotganlarida inobatga olishmaydi. Bundaylarni nonko'r deb atasak ham bo'ladi.

Men menga nisbatan qilingan nohaqliklarning ustidan bosib o'tib ketyapman. Yolg'izlikning menga biron bir zarari yo'q. Insonlar qalblarini qoraytiribdilar. Yana bir haqiqat borki, ular sizdan doim noto'g'ri harakatlar qilishingizni kutadilar.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Ammo aslo o'z haqiqatlaringizdan voz kechmang.

Insonlar yolg'onlariga rang qo'shib ma'sumlash-tirishga harakat qilgan onlaridayoq o'z ma'sumi-yatlarini ham yo'qotadilar. O'z vijdonlarini tinch-lantirish uchun sizni ham xatolarga sudrashni xohlaydilar.

Necha marotaba dilim og'ridi. Ranjigan joyim-dan yana bir karra ozor chekdim, bu safar ham ke-chirdim, lekin menga zarar berganlarni o'zimdan uzoqlashtirdim.

Inson ma'lum bir joyga qadar harakat qilar ekan. Sababsiz hafagarchiliklardan, past nazarga ilinib ranjishdan juda charchadim.

Meni yolg'iz deb o'ylagan hammaning yo'li ochiq bo'lsin. Men insonlarning yarasiga malham bo'lishdan voz kechganimga ancha bo'ldi.

TOTLI OG'RIQLAR

Yaxshiyam meni ranjitishibdi. Yaxshiyam yolg'onlaringizni ko'rdimki, ko'rmaslikka olgan narsalarimni payqadim.

Yaxshiyam yarim yo'lda tashlab ketdilar. Endi hech kim uchun yangi bir yo'lga chiqmayman. Shoyadki, bir yo'lim bo'lsa, men bilan faqatgina kelishni xohlaganlar hamrohim bo'lishadi. Ana o'shanda yarim yo'lda qolib ketmayman.

Yaxshiyam menga ozor berishyapti, chunki insonlarning zaif taraflarini o'rganyapman. O'z manfaatlari uchun ishlatadigan niqoblarini cho'ntaklarida olib yurishlarini eng yaxshi men bilaman.

Meni charchatgan insonlarning soyasida ba'zi narsalarni bilib oldim. Hatto juda charchadimki, o'z-o'zimni yaraladim. Ustimga to'xtamasdan suv quyib turganlarga atayin yanada alanga olib kattalashdim.

O'zgarib qolding, degan insonlarga jilmayib o'tib ketyapman.

Men bu menimni osonlikcha qo'lga kiritmadim. Bir lahzada kuchli ayolga aylanmadim.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Bir badal to'ladim.

Men ekanlarimni boshqalar terib olayotganda, men chorasizlarcha kutdim. Balki qadrimni bilar deya sabr qilgan insonlarning noshukurliklarini ko'ngil bog'imdan terib oldim. Dardlar meni o'zimga qovushtirdi.

Bundanda yomoni nima bilasizmi?

Insonlar sizdan foydalana olmaganlarini sezganlaridan keyin siz u xafa bo'ladi, deya aytolmagan barcha so'zlarni bir nafasda yuzingizga sohib tashlaydilar.

ICHIMDAGI ISHONCH ARG'IMCHOG'I UZILDI

Ba'zi narsalarni qabul qilish men uchun oson bo'lmadi. Siz shirin uyquda uxlayotganingizda, qayerlardadir kezib kulayotganingizda, men qalbim devorlarini tirnab qonatishda davom etdim.

Yana bir bora sevilmayman deya ichimdagi sevgiga oid hamma narsani olib tashladim.

Ichi sevgiga to'lib toshgan bir ayol, nima sababdan qaytadan aslo sevilmasligini qanday his qilishi mumkin? Bir insonga bu qadar yomonlik qilinishi mumkinmi?

Yomonsiz, ey ko'rkam odam.

Ko'rkam deyayotgan bo'lsam tilimga o'rnashib qolganidandir. Bularning hammasi siz loyiq-
ligingizdan emas, sevgimning go'zalligidandir.

Bilasiz, oxiri o'lim bo'lgan dardlaringizga ham chiday olardim.

Menga oson bo'lmadi, hech narsaga ar-
zimasligingizni ko'rgunimcha ko'r bo'lay dedim.

Ichimdagi sevgi arg'imchog'i sizdan nafratlan-
maydigan darajada uzilib ketdi.

Bizni yolg'iz deb o'yladilar

Bir ko'chaning boshida yo'llarimiz duch kelsa, o'sha soniyalarning o'zidayoq nigohlarimni sizdan olib qochaman. Oldinlari balki sizni zavq bilan tomosha qilardim, biroq siz endi oddiy begonasiz.


Ba'zi narsalar qaytadan bo'lmas ekan.

Yana bir marotaba oldingidek ishona olmas ekansiz.

Balki sevgingizdan kechalari bilan qiynalayotgandirsiz, biroq uning yuzini ko'rishga ham toqatingiz yo'qdir. Holbuki, uning kulgan yuziga oshiq bo'lgandingiz. Hayot muvozanati shunday. Bir insonga qarshi bir tuyg'uni qaytadan his qilasiz. Undan keyingisi esa shunchaki o'rganib qolishdir. Vaqti kelganda o'sha iplar uzilib ketadi.

Songul Unsal

**Men hech kimga nohaqlik qilmayapman,
lekin menga qilingan nohaqliklarni hazm
qilolmayapman ham.**



KO'P NARSADAN BEHABAR EDIM


Qalbingiz haqiqatan qalbi bor insonga to'qnashsin. Barcha qalbi borligiga da'vo qilsa ham, o'ylab ham o'tirmay qablarni parchalaydigan ko'pgina inson topiladi. Hayot yo'lingizda, yo'lingiz yaralaringizni ardoqlaydiganlar bilan to'qnashsin. Sizni siz ekanligingiz uchun sevadigan insonlarni seving. Sizni o'zgartirishga harakat qilmagan insonlar uchun harakat qiling.

Doimo o'zini haqli deb bilganlarga qarshi siz aslo haqli bo'lib chiqmaysiz. Yo sizni o'timishingizdan jarohatlaydilar yoki bitmagan yaralaringizdan... Qalblarida yashiringan ayyorlik sirtlariga chiqadi.

Siz, kulishida gullar ochiladigan insonni seving. Qiyin bo'lsa-da, chiroyli bo'lsin deb turib olib, sizni haqoratlagan insonlar bilan vaqtingizni o'tkazmang. Buning ismi sevgi emas, buning ismi o'ziga bo'lgan qadrsizlik. Siz o'zingizni qadrlamayotgan bir paytda boshqa birov sizni qanday qilib qadrlasin?

Hammasi yaxshi bo'ladi. Balki yana ozgina joningiz azob chekadi lekin bir muddatdan keyin bekorga qayg'urgan ekanman deysiz.

Hayot sizni kutilmagan vaqtda gullatadi. Shu onda to'kayotgan har bir ko'z yoshingiz, ko'ngil tuproqlaringizdagi urug'ga yomg'ir bo'ladi.




NOTO'G'RI HAYOT TO'G'RI YASHALMAYDI

*“O‘lmasdan oldin o‘lish” fikrini qabul qilgan,
o‘z joniga qasd qilgan va o‘ttiz yildan buyon qamoqxonada
yashab kelgan bir ayol...*

*Hasrat Qurtilish; giyohvand moddalarga berilgan, erini
o‘ldirishda ayblangan va hayotdan allaqachon voz kechgan
bir ayoldir. Yana birbora joniga qasd qilish urinishidan so‘ng,
psixolog muolajasini boshlaydi.*

*Bu safar psixolog boshqacha edi. Birinchi marotaba
qamoqxonada bir bemorni davolayotgan Psixolog Efe Toshchi,
Hasratning hayot hikoyasini eshitganidan keyin unga yordam
berishga qaror qiladi. Bu yordam yo‘lida qayg‘u va umidning
bir-biriga ta’sir qilgan hikoyasi boshlanadi.*



NASIBA NIYATGA BOG'LIQ

Hammasi o'zo'rnida ketayotgan bir vaqtda boshingizga shunday bir tashvish tushadi-ki "Yondim!", "Kuydim!" debyiqilasiz. Aynan o'sha on, ichingizdagi yaxshiliklar bilan ulg'ayayotgan bola chiqib keladi va eshigingizni qoqadi.

"Tur!" deydi, "O'rningdan tur!"

Qo'lingizdan tutib, zulmatni yengib o'tadi va sizni yaxshikunlarga eltadi.

Yaxshilik qo'rquv nimaligini bilmaydi.

Oydinlik hech qorong'ulikdan qo'rqanmi?

Yomon kunlar bilan yuzlashganingizda avval Allohga, keyin ichingizdagi yaxshi niyatdan boshqa hech kimga muhtoj bo'lmang!

Niyatlaringiz naqadar yaxshi bo'lsa,

Alloh shu qadar sizga yaqindir.

Nasibangiz esa niyatingizda yashirin...

Bor yo'g'ingizni qo'lingizdan tortib olsa ham, aylanib o'rgilib sizga haqqingizni qaytarib beradi!

Aslo ro'yobga chiqmaydi demang!

Chiqadi!

Unutmang, Alloh gar xohlasa hatto qushlar ham fillarni yengadi azizim..

MILLIONLAB INSONLAR QALBIDAN JOY OLGAN
KITOBLAR

Songul Unsal



BIZNI YOLG'IZ DEB O'YLADILAR

Tarjimonlar:

Risolat IBRAGIMOVA

Bosh muharrir:

M. Nishonboyeva

Badiiy muharrir:

Sh. Odilov

Musahhih:

A. Yunusov

Kompyuterda sahifalovchi:

Sh. Axrorova

“BEST-BOOK” nashriyoti ushbu kitobni Turkiyaning “Olimpos” nashriyoti bilan “Akdem Telif Haklari ve Tercüme” agentligi vositachiligida 2022-yil 3-yanvarda tuzilgan shartnoma asosida chop etdi. Agar kitobning orqa muqovasida qalbakilashtirishdan himoyalovchi vosita gologramma bo‘lmasa, demak, bu kitob qalbaki. Darhol +99 871 200-98-99 telefon raqamiga qo‘ng‘iroq qilishingizni iltimos qilamiz! Buning uchun sizdan benihoya minnatdor bo‘lamiz va sizga kitob sovg‘a qilamiz.

Litsenziya raqami AA № 2549. 28.03.2022 da berilgan.
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 44A-uy

Bosishga 07.04.2022 yilda ruxsat etildi. Bichimi – 84x108 1/32.
Bosma tobog‘i – 5,5. Garnitura – «Times New Roman».
Qog‘oz – ofset bosma. Adadi 1500 nusxa. Buyurtma raqami 22-01.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Dizayn-Print” MChJ O‘IChK bosmaxonasida chop etildi. Manzil:
100054. Toshkent shahri, Cho‘pon ota ko‘chasi, 28-a uy.

“Xasanov Farxod” YTTda muqovalandi.
Manzil: 100054. Toshkent shahri, Cho‘pon ota ko‘chasi, 28-a uy.

SO'ZLARIM YARIM QOLADI

MENI QALBIMDAN TINGLANG



ABDURRAHMAN UZUN

BOOK PRESS

Seda Ero'g'li



YAXSHILAR YO'QOTMAYDI

yo'qotilishi

"Kechirish va unutish yaxshi insonlarning intiqomidir."

BOOK PRESS



BIZNI YOLG'IZ DEB O'YLADILAR

Ortiq bu mavsumning boshqa bir bahoriga ehtiyojim bor...

Barcha yaralarimizga malham o'rniga tuz bosildi. Osmonlarga ko'tarilgan sevgimiz urug'idan ayriliq unib chiqdi. Juda qattiq sevib, go'yo ulardan voz kechib bo'lmaydigandek his qildik ... Avval voz kechildik keyin voz kechdik.

Balki bizni yolg'iz deb o'ylaganlari ham shundandir biroq hech kimga ozor bermadik. Ichimizdagi yolg'izlikka qaramay umidimizni yo'qotmadik.

Naqadar ranjisak ham chiroyli sevishdan aslo voz kechmadik.

Barcha yolg'izliklar yolg'izligidan g'ururlanganlar, haqiqatan sevganlar va birovning azob chekishidan xavotirlangan insonlar uchun xosdir...

Songul Unsal



ISBN 978-9943-8134-2-7



9 789943 813427